

O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus talim vazirligi  
Namangan muhandislik - qurulish instituti  
Qurilish-texnologiya fakul'teti  
“Qurilish materiyallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish”  
kafedrasи

Ta'lif yo'naliishi: 5340500 Qurilish materiyallari, buyumlari va konstruksiyalarini  
ishlab chiqarish

**Himoyaga ruxsat etilsin**  
**Qurilish-texnologiya fakulteti dekani**  
**S.Razzaqov** \_\_\_\_\_

“ \_\_\_\_\_ ” 2018 y.

### **DIPLOM LOYIHASINI BAJARISH UCHUN VAZIFA**

Talaba Rahimov Muhammadqobiljon Qodirjon o'g'li

**Diplom loyihasining mavzusi: Beton qorishmasini tayyorlash texnologoyasi**

**26.12.2017 y. 730-T**

1. Diplom loyihasini dastlabki himoyaga taqdim etish vaqtি .
2. Mavzu bo'yicha adabiyotlar ro'yxati:
  1. Asqarov B.A. Qurilish konstruksiyalari. T., O'zbekiston, 1995 y.
  2. Akramov H.A. Qurilish ashyolari sanoati korxonalarini loyihalash. T., O'zbekiston, 2003 y.
  3. Akramov H.A. Nuritdinov H.N. Beton va temir-beton buyumlari ishlab chiqarish texnologiyasi. Darslik. T., O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatি, 2011 y.
  4. O'z.RST 707-96. Beton. Pravila podbora sostava.
  5. Akramov H.A., Nuritdinov H.N. Beton va temir-beton buyumlari ishlab chiqarish. O'quv qo'llanma, I va IIqism. T., O'zbekiston, 2007 y.

3. Hisob – tushuntirish xatining mazmuni:

Kirish. Texnologik qism. Mahsulot nomenklaturasi. Ishlab chiqarish usulini tanlash va asoslash. Korxonaning ish rejimi. Xom ashyo va yarim fabrikatlarga sex (korxona)ning talabini aniqlash. Texnologik asbob-uskunalarini tanlash va hisoblash. Sement ombori hisobi. To'ldiruvchilar ombori hisobi. Beton qorish sexi hisobi. Xisob-kitob qismi. Iqtisodiy qism. Mehnat muhofazasi va texnika

xavfsizligi. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

4. Chizma materiallarning ro‘yxati : Bosh reja. Beton qorish uzeli Sement ombori. To‘ldiruvchilar ombori. Hisob qismi.

5. Loyiha bo‘yicha maslahatchilar

№	Qismlar	Maslahatchi	Imzo, sana	
			Topshiriq berildi	Topshiriq qabul qilindi
1	Texnologik			
2	Hisobiy			
3	Iqtisodiy			
4	Pedagogika qismi			
5	Mehnat muhofazasi			

6. Diplom loyiha bajarish grafigi

№	Loyiha qismlarining bajarilishi	Bajarilish muddatlari	Bajarilishi bo‘yicha belgi (rahbar imzosi)
1	Texnologik		
2	Hisobiy		
3	Iqtisodiy		
4	Pedagogika qismi		
5	Mehnat muhofazasi		

Diplom loyiha rahbari

V.Mamadaliev

(F.I.O.)

imzo

Kafedra mudiri

(F.I.Sh.)

imzo

Bajarish uchun vazifani qabul qildi

(talaba imzosi)

## Mundarija

KIRISH.....	6
I.Texnologik qism.....	12
1.1. Beton qorishmalari markalari bo'yicha nomenklaturasi .....	13
1.2. Beton qorishmalar sexi ish rejimi.....	14
1.3. Beton markalari bo'yicha yillik xisobi .....	15
1.4. Beton qorishmalari uchun ishlataladigan materiyallar .....	17
1.5. Sement.....	24
1.6. Beton qorishmalari uchun to'ldiruvchilar.....	29
1.7. Betonning xom-ashyo fabrikatlariga talabi.....	40
1.8. Betonning klasifikatsiyasi va asosiy xossalari.....	42
1.9. Beton tarkibini xisoblash va xomoshyo materyallar sarfi.....	60
1.10. Beton qorishmalarini tayyorlash va tashish.....	67
1.11. Beton qorish sexini xisoblash.....	72
1.12. Beton tarkibini xisoblash uchun texnologik uskunani tanlash va hisoblash.....	76
1.13. Sement omborini hisoblash.....	77
1.14. Toldiruvchilar omborini hisoblash.....	79
II. Hisobiy qism.....	81
III. Iqtisodiy qism.....	86
IV. Mehnat muxofazasi va texnika xavfsizligi.....	95
V. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	99

# KIRISH

## Kirish

Bino va inshotlarni qayta rekasntruksiya qilishda va yangi qurilayotgan binolarda zamonaviy qurulish materyallaridan foydalanish va zamonaviy texnologiyalari bilan taminlash ustivor masala etib belgilandi. Bu boralarda olib borilgan jabxalarda olib qarasak, yuqori darajada ishlar olib borildi, zamonaviy qurulish materyallaridan foydalanib respublikamizda talabga jovab beradigan inshoatlar qurildi. Qurulish materyallarini ishlab chiqarish korxonalari tashkil etildi. Hozirgi kunda mavjud imkonyatlardan foydanib zamon talabiga mos ravishda jixozlanayotganini ko'rishimiz mumkun.

2017 yilda mamlakatimizda barcha 159 ta qishloq tumanida umumiy qiymati 470 mlrd so'm dan ortiq bo'lgan 77 ming 630 ta uy joy qurilishi rejalashtirilgan. Bunda nafaqat zamonaviy va qulay kotejlar qurish, ayni vaqtda bolalar bog'chalari, umumtalim maktablari, sport inshootlari, tibbiyot muassasalari, xizmat kursatish obyektlarining va ravon yo'llar qurish ko'zda tutilgan. Mamlakatimizda barcha zarur ijtimoiy va komunikatsiya infratuzilmasiga ega bo'lgan izchil rivojlanib ishlanayotgan va iqtisodiy nochor korxonalarni sog'lomlashtirish jarayoniga jalb qilish tajribasi amalda o'zini to'la oqladi. Shu sababli eski texnika va mexanika asosida ishlayotgan har qanday iqtisodiy istiqbolli bo'limgan korxonalarni tugatish va ularning negizida yangi zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish maqsadida ko'p ishlar amalga oshirilmoqda. 2017 yilda mahalliylashtirish asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi o'tgan yilgacha nisbatan 40% ga o'sishi shu borada ekspert qilinadigan mahsulotlarning ulushi esa kamida 12% ni tashkil etilishi kutilmoqda. Qishloqda uy joy qurilish va ijtimoiy infratuzilmaga rivojlantirish jadallashtirish dasturining 2017 yilning muhim ustuvor yo'naliishlari qatoriga kiritilishiga to'la asos bor. Yurtimizda 2017 yilning "**Sog'lom bola yili**" deb e'lon qilinishi shu munosabat bilan qabul qilingan. Davlat dasturining amalga oshirilishi shahar va qishloqlarimiz qiyofasini zamonaviy arxitektura va sanoat asosida tubdan o'zgartirish va yangilash uy-joy

ijtimoiy va komunal obyektlar komunoikatsiyalarini barpo etish bo'yincha uzoq muddatga mo'ljallangan aniq maqsadli ishlarimizning boshlanishi bo'ldi. Bularning barchasi yurtimiz aholisi turmush tarzini tubdan oshirish va shahar sharoitiga yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Ushbu maqsadlarda moliyalash barcha mablag'lari hisobidan 2017 yilning o'zida 2 trillion 600 mlrd. so'mdan ziyod mablag' yo'naltiradi. Eng muhimi o'tgan yili yurtimizda qurilish olib borish uchun uzoq mo'ljallangan loyihalashtirish sanoat qurilish muhandislik mexanik jihatdan kuchli zamонавиу salohiyatga ega bo'lgan o'ta yirik uy-joy bozori shakllanmoqda.

Sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarilayotagan maxsulot tannarxi 18% ga Olmaliq kom metalurgiya kombinati "*o'zlik kombinati*" aksiyadorlik ishlab chiqarish kombinati, "*O'z qurulish materiyallari*" kompaniyasi singari va boshqa korxona va tarmoqlarda 20-25% kamaydi. Davlat dasturini amalga oshirishda investitsiyalarni jalb etish avvola ichki manbalarni safarbar etish xisobidan iqtisodiyotimizning muxum tarmoqlarini jadal moderinizatsiya qilish va texnologik qayta jihozlash, transport kamunikatsiyalari ni rivojlantirish va ishtimoiy infiratuzilma obektlarni barpo etishni xal qiluvchi ustivor yo'nalishga aylanadi. Invistitsiy dasturi va texnik moderinizatsiyalsh bo'yicha tarmoq dasturlari doirasida 2013 yil moboynida (690) ta invistitsiya loyixasi amalga oshirildi. Ularning (303) tasi mufaqiyatli amalga oshirildi.

Respublikamizda jami 22 ta yirik ishlab chiqarish obekti jumladan, neft-gaz, kimyo, metalurgiya sanoatida esa 8 ta, mashinasozlik sanotida esa 9 ta va qurulish industuriyasida 5 ta obekt foydalanishga topshirildi. Qishloq qurulish Bank va Qishloq qurulish loyixa loyixalash inistituti kabi ixtisoslashgan tuzulmalar tashkil etildi. Uy- joy obektlari qurulishi bo'yicha 22 ta mamuriy loyixa, ishtimoiy obektlar qurulishi bo'yicha esa 16 ta loyixa , kompileks qurulish bo'yicha namunaviy rejalar ishlab chiqarildi va bu loyixalar respublika mintaqaviy ko'rgazmalarda keng muxokama etilgandan so'ng tasdiqlandi. Shu borada ixtisoslashtirilgan "Qishloq qurulish investi" buyurtma kompanyasi tashkil etdi.

Mamlakatimiz bo'yicha 42 ta massivda yangi uy-joylar qurulishi boshlab yuborildi. 2013 yil investitsiya dasturi doirasida faqat uy-joy qurulishi uchun "*Qishloq qurulish banki*" orqali axoliga 250 mld so'mdan ortiq imtiyozli kiriditlar axoliga berilgan bo'lsa, 2017 yilgi investitsiya dasturi doirasida faqat uy joy qurilishi uchun "*Qishloq qurulish banki*" orqali aholiga 250 mld so'mdan ortiq imtiyozli kreditlar ajratish ko'zda tutilgan. Bu 2013 yilda ushbu maqsadlarda yo'naltirilgan mablag' miqdoridan to'rt marta ko'p demakdir. Ani vaqtda yakka tartibda quruvchilarining uzlari ham 70 mld. so'mga yaqin mablag' sarf etilishi kutilmoqda.

Bu ko'rsatkich 2013 yilga nisbatan 4 barovar ko'p bo'lgan bo'lsa, 2017 yilda turar joy binolarini yanada takomillashtirish yangi dizayindagi zamon talabiga javob berdigan uylarni qurush ishlari jadal olib borilmoqda. Shu bilan bir vaqtda yakka tqrribda turar-joy binolarini qurush ishlariga xam 100 mld ga yaqin mablag' ajratilishi kutilmoqda. 2017yilda mamlakatimizda 159 ta qishloq tumanida umumiy qiymati 470 mld so'mdan ortiq bo'lgan 7 ming 630 ta uy-joy qurib bitqazildi. Bunda nafaqat zamonaviy qulay natijalar ko'rish, ayni vaqta bollalr bog'chalari umumtalim maktablari, musiq vq sanat maktablari, sport inshotlari, tibbiyot muassalari, xixmat ko'rsatish obektlari, tibbiyot muassalari keng va ravon yo'llar qurulib bitqazildi. Mamlakatimizda barcha ko'zda tutilgan ijtimoiy va komunikatsiya infiratuzulmasini ega bo'lgan izchil rivojlanib ishlayotgan va iqtisodiy korxonalarni sog'lomlashtirish jarayonida jalb qilish tajribasida amalda o'zini to'la oqladi. Shu sababli eski texnika va texnalogiya asosida ishlayotgan, xech qanday iqtisodiy istiqboli bo'limgan korxonalarni tugatish va ularning negizida yangi zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish maqsadida mufoqdir. 2017 yilga kelib maxallilashtirish asosidagi ishlab chiqariladigan maxsulotlar xajmi 2012 yilga nisbatan 40% ga oshgan bo'sada bu ko'rsatkishlar 2017 yilga 50% qilib belgilandi. Shu borada eksport qilinadigan maxsulotlarning ulushi esa kamida 10 %ga oshdi. Qishloq uy- joy qurulish va ishtimoiy in fira tuzulmalarni rivojlantish ni jadallashtirish 2015 yilning muxum ustivor

yo'nalishlari qatorida qo'yishimizga to'liq asos bor. Davlat dasturini amalga oshirilishi shaxar va qishloq larimizning qiyofasini zamonaviy arxitektura va sanoat asosida tubdan o'zgartirish va yangilash, uy-joy, ijtimoiyn va komunal obektlar komunikatsiyalarini barpo etish bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan aniqmaqsadli ishlarimizning boshlanishi bo'ldi. Bularning barchasi yurtimizning axolisi turmush tarzini tubdan o'gartirish va shaxar sharoitiga yaqinlashtirishga ximmat qiladi.

Eng muximi o'tgan yillar davovima yurtimizda qurulishni olib boorish ushun uzoq istiqbolga mo'ljallangan, loyixalashtirilgan, sanoat qurulish, muxandislike-texnik jixatdan kuchli zamonaviy saloxiyatga ega bo'lgan o'ta yirik uy-joy bozorlari shakillanmoqda. 2017 yilda "*O'zqurilishmateriallari*" AK tomonidan yangi turdag'i qurilish materiallarini ishlab chiqarishni o'zlashtirish borasida aniq chora tadbirlar belgilangan bo'lib ular jumlasidan zamonaviy g'ish ishlab chiqaruvchi korxonalarini ishga tushirish qishloq aholi punktlarida zamonaviy tomyopgich materiallarini ishlab chiqarish bo'yincha 6 taishlab chiqarish obyektlarini ishga tushirish zamonaviy bezaklovchi materiallarni ishlab chiqaruvchi yangi quvvatlarni ishga tushirish 6 ta tiklash va rekonstruksiya qilish hamda ularning quvvatini oshirish singari yirik qurilish inshootlari o'rinni olgan.

Metall konstruksiyalar yengil bo'lishi bilan birga tashqi muxitga agressiv muhit ta'siriga juda yomon ishlovchi materyallar xisoblanadi, beton esa cho'zilishga yomon ishlovchi material xisoblanadi. Shu sababli bu ikki ajoyib qurulish materiyallari birikmasida zamonaviy arxitektura soxasida hozirda keng qo'llanilayotgan Temir\_Beton konstruksiyasini olishimiz mumkun. Bu ikki birikma asosida olingan kompozit material birikma, bir vaqtning o'zida ham egilishga ham siqilishga yaxshi ishlash bilan birga cho'zilishga bo'lgan mustaxkamligini ham yaxshilab oladi. Bu sohaning jadallik bilan rivojlanishi va xalq xo'jaligining asosiy tarmog'iga aylanib olishida qurulish materiyallari ishlab

chiqarish tarmog'ini tashkil etib, uni rivojlanishi esa yurtimiz sanoatining asosiy bo'g'ini xisoblangan xom-ashyo bazasiga ega ekanligini asoslab beradi.

Qurulishning eng asosiy bo'lagi va uning asosini tashkil etuvchi maxsulot bu beton xisoblanadi. Beton asosan suv bilan qorishtiriladi. Betonning faol tashkil etuvchilar suv va cement xisoblanadi. Ularning reaksiyaga kirishishi natijasida to'ldiruvchlarning zarralarini biriktiradigan yaxlit quyma tosh hosil bo'ladi. Cement va to'ldiruvchi o'rtasida o'zaro kimyoviy ta'sirlashuv yuzaga kelmaydi. Shuning uchun to'ldiruvchilar inert ashyolar xisoblanadi. Biroq ular beton xususiyata va tarkibiga tasir qiladi va bu tasir ni beton tarkibini loyihalashda hisobga olish taqoza etadi.

*(2013 yil 7 dekabr konstitutsiyaning 21 yiligiga bag'ishlangan prezidentimiz I.A.Karimovning nutqidan)*

# I.Texnologik qism

## **1.1. Beton qorishmalari markalari bo'yicha nomenklaturasi**

Beton ishlab chiqarishda meyoriy xujjatlar asosida belgilab qo'yilgan maxsulotlar nomenkilatura 1.1 jadvalda keltirilgan.

**Diplom loyihasi bo'yicha ishlab chiqarish uchun qabul qilingan beton qorishmalarininig nomenkilaturasi. 1.1-jadval**

БСГ В7,5 П1 F50 УзРСТ 7473-94

БСГ В15 П2 F50 УзРСТ 7473-94

БСГ В22,5 П2 F50 УзРСТ 7473-94

БСГ В22,5 П2 F50 УзРСТ 7473-94

Maxsulot nomi	Meyyoriy xujjat
<b><u>БСГ В7,5 П1 F50 УзРСТ 7473-94</u></b>	
БСГ В10 П1 F50 УзРСТ 7473-94	УзРСТ 7473-94 “Beton qorishmasi. Texnik shartlar”
БСГ В10 П3 F50 УзРСТ 7473-94	
БСГ В15 П1 F50 УзРСТ 7473-94	
<b><u>БСГ В15 П2 F50 УзРСТ 7473-94</u></b>	
БСГ В15 П3 F50 УзРСТ 7473-94	УзРСТ 7473-94 “Beton qorishmasi. Texnika shartlari”
БСГ В22,5 П1 F50 УзРСТ 7473-94	
<b><u>БСГ В22,5 П2 F50 УзРСТ 7473-94</u></b>	
БСГ В22,5 П3 F50 УзРСТ 7473-94	
БСГ В25 П2 F50 УзРСТ 7473-94	
БСГ В25 П4 F50 УзРСТ 7473-94	
БСГ В30 П1 F50 УзРСТ 7473-94	
<b><u>БСГ В30 П2 F50 УзРСТ 7473-94</u></b>	
БСГ В35 П1 F50 УзРСТ 7473-94	
БСГ В40 П1 F50 УзРСТ 7473-94	

## 1.2. Beton qorishmalar sexi ish rejimi

Beton qorishmasini tayyorlash sexi ish rejasini vaqt meyorlarida keltirilgan malumotlarga ko’ra quydagilarni qabul qilamiz quydagilar qabul qilinadi.

- bir yilda kunlar soni - 365 kun
- dam olish kunlari -52 kun
- bayramlar soni -8 kun
- prafilaktika ish kunlari -27 kun
- kapital remont kunlari soni -20 kun

- yilda hisobiy ishchi sutkalari soni – 262;
- sutkada ishchi smenalarini soni (issiqlik ishlovisiz) - 2
- issiqlik ishlovida sutkada ishchi smena soni - 3
- xomashyo va materiallarni qabul qilish va tayyor mahsulotlarni yuklashda sutkada ishchi smenalar soni:
  - a) temir yo'l transportida – 3 ;
  - b) avtotransportda – 2 yoki 3;

Yilda ishchi sutkalari soni (262) 5- kunlik ish haftasidan kelib chiqiladi.

5 kunlik ish haftasi bo'yicha ish rejimi qabul qilinadi:

- a) 2 smenada – 8 soat, jami sutkada 16 soat, bunda 2 ta tushlik 1 soatdan;
- b) Xom-ashyo materyallarni qabul qilib olish 3 smenadaamalga oshiriladi.

### **1.3. Beton tarkibini markalari bo'yicha yillik xisobi**

Korxonaning yillik ishlab chiqarish dasturi va buyumning nomenoklaturasi topshiriqda berilgan. Korxonaning ish rejimidan kelib chiqib buyum va yarim fabrikat ishlab chiqarishdagi yuqotish va brakni inobatga olgan holda hisoblanadi.

Temir - beton korxonalari uchun:

- beton qorishmalari uchun - 0.5 % gacha

- buyum bo'yicha - 1.0% gacha

Har bir texnologik bosqich uchun ishlab chiqarish quyidagi formula asosida hisoblanadi:

T/r	Beton markasi	O'lchov birliqi	Hisoblash formulasি	Mahsuldorlik
-----	------------------	--------------------	------------------------	--------------

$$M_x = \frac{M_T}{1 - \frac{b}{100}} = \frac{120000}{1 - \frac{1.5}{100}} = 123076 \text{ m}^3$$

Bu yerda:  $M_x$  - hisobiy ishlab chiqarish

$M_T$  – korxonaning topshiriq bo'yincha ishlab chiqarishi  
 $b$  – ishlab chiqarishdagi brak, 1,5%.

Beton markalari bo'yicha yillik xisobi 1.2-jadvalda ko'rsatilgan

				yilda	sutkada	smenada	soatda
1	B7,5 (7%) M100	m <sup>3</sup>	$M_x = \frac{M_T}{1 - \frac{b}{100}}$	8615.32	32.88	16.44	2.05
2	B15 (60%) M200	-	-	73845.6	281.85	140.92	17.61
3	B22,5 (25%) M300	-	-	30769	117.43	58.71	7.33
4	B30 (8%) M400	-	-	9846.08	37.58	18.79	2.3
5	Jami:	-	-	123076	469.74	253.65	29.29

1.2-jadval

#### 1.4. Beton qorishmalari uchun ishlataladigan materiyallar

*Beton* – suv bilan qo'shilgan bog'lovchi hamda to'ldirgichlar qorishmasining zichlanishi va qotishi natijasida hosil bo'ladigan sun'iy tosh materialdir.

Qayta ishloving ma'lum bosqichida yopishqoq – plastik xususiyatga ega, hamda sochiluvchan massalar (mineral kukunlar, mayda va yirik donli materiallar – qum, shag'al, toshlarva x. k.)ni bir – biriga bog'lash xususiga ega va sekin–asta qattiq xolatga o'tuvchi materiallar – bog'lovchi moddalar deyiladi.

Kimyoviy tarkibiga ko'ra, ular quyidagi guruhlarga bo'linadi:

Noorganik (mineral) bog'lovchi moddalar (gips, qurilish oxagi, portlandsement va boshqalar);

Organik bog'lovchi moddalar (bitum, degotъ, polimer bog'lovchilar).

Shtukaturka qorishmalarini olish uchun noorganik bog'lovchi moddalar ishlatiladi: portlandsement va shlakoportlandsement, ularning markasi qorishma markasidan 3 – 4 marta ko'proqdir. Havosimon ohak.

Ohaksimon xamir yoki kukun tayyorlash uchun ishlatilishi mumkin. Bundan tashqari, gipsli bog'lovchili qorishmalar ham ishlatiladi. Ular mexanik chidamliligi bo'yichasementli qorishmalarga yaqinlashadi.

Portlandsement va uning turlari 25 va undan yuqori markali qorishma uchun tavsiya qilinadi. Uning asosidagi ohakli va aralash bog'lovchilar 10 va undan yuqori markali qorishmalar uchun ishlatiladi. Qorishma markasiga bog'liq bo'limgan holdasementlar 60% dan ko'p namlikda ishlatishga mo'ljallangan qorishmalar uchun bog'lovchi sifatida qo'llaniladi.

Gips: tarkibi, xususiyati, qo'llanilishi. Gipsli bog'lovchi moddalar. Gipsli bog'lovchilar QMQ 125 – 79 talablariga mos ravishda tayyorlanishi kerak.

Gipsli bog'lovchi moddalar ishlab chiqarish uchun xom – ashyo bu tog' jinslaridir, tarkibida mineral gips mavjud bo'lishi kerak.

Gips – bu mineral tog' jinsi bo'lib, ikkilamchi kalbsiy sulfiydir:  $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ .

Ikkilamchi toza gipsning kimyoviy tarkibi quyidagi 1.3 – jadvalda keltirilgan

1.3-jadval

Komponent nomi	% massa bo'yicha
SaO	32,6
SO <sub>3</sub>	46,5
N <sub>2</sub> O	20,9

Gipsli toshning texnik xarakteristikalari. 1.4 – jadvalda berilgan

1.4-jadval

Zichligi, kg/m <sup>3</sup>	2200 – 2400
Sepma zichligi, kg/m <sup>3</sup>	1300 – 1600
Namligi, %	3 – 5
Moos shkalasi bo'yicha qattiqligi	2
CaSO <sub>4</sub> hisobida gipsning suvda eruvchanligi, g\l, 18°S	0.2
40°S	0,21
100°S da	0,17
16 – 46 °S intervalda issiqlik o'tkazuvchanlik Vt\/(m x k)	0,43
Gipsli tosh tarkibidagi CaSO <sub>4</sub> •2H <sub>2</sub> O ning miqdori, % navlvr bo'yicha	
I	95
II	90
III	80
IV	70

Gipsli bog'lovchi moddalarni shartli ravishda quyidagilarga bo'linadi:

- Qurilish gipsi;
- Shlakli gips;
- Yuqori chidamli gips;

Qurilish gipsi – ikkilamchi maydalangan gipsning kuydirib olingan maxsulotdir. Ayrim zavodlarda kuydirilgandan so‘ng gips yana maydalanadi.

Shlakli gips ham kal’siy polugidrat sul’fatidan tashkil topgan. Qurilish gipsidan farqi uning o‘ta maydaligidadir.

Yuqori chidamlı gips α – polugidratning maydalangan maxsulotidir, bu shunday issiqlik qayti ishloviki, bunda gipsdan suv – tomchi xolatida ajralib chiqadi. Bunday sharoitga 0.15 – 0.3 MPa bosimda to‘yingan bug‘ muhitida, avtoklavda erishish mumkin.

Gipsli bog‘lovchi moddalarning ko‘rib chiqilgan turlarini turli maqsadlar uchun ishlatiladi. Qurilish va shlakli gipslar quyidagilarni ishlab – chiqarishda ishlatiladi:


- KNAUF – listlar (gipsakarton list);
- KNAUF – superlist (gipsotolasimon list);
- quruq qurilish qorishmalar;
- gipsli qovurg‘asimon plitalar;
- gipsolit detallar;
- ventilyasion korobkalar;
- olovga chidamlı va tovush yutuvchi maxsulotlar.

Bu materiallarning hammasi havoning nisbiy kamligi 60% dan oshmagan xonalarda ishlatilishi kerak, chunki gipsli maxsulotlarning namlanishi doim chidamlilikni pasaytiradi va plastik diformatsiyalarni ko‘paytiradi. Gipsli maxsulotlar namlikka chidamliligini, masalan: sintetik smolalar qo‘shish, gidrofob moddalar bilan to‘yintirish, uzlusiz zichlash yo‘llari bilan oshirish mumkin. Suga chidamlilimknii oshirishning alohida samarador usuli gips asosli aralash bog‘lovchi moddalarga o‘tishdir.

Ishlab chiqarish sharoitida gipsli bog‘lovchilarning ikki xil usuli bor: nam va quruq ishlatiladi.

Havoi ohak. Havoi qurilish oxagi – bog‘lovchi modda, tarkibida karbonat kal’siy ( $\text{CaSO}_3$ ) bo‘lgan tog‘ jinslarini bir tekis va uzlusiz kuydirish yo‘li bilan olinadi. Bunday tog‘ jinslari ohak tosh bor.

Havoyi ohak olish uchun, asosan xom ashyo tarkibiga ko‘ra, 900 - 1200°Sdarajadagi temperaturada kuydirish talab qilinadi. Kuydirish quyidagi tenglamaga ko‘ra, uglknordon gazni to‘liq yo‘qotguncha amalga oshiriladi:



Xom ashyo turli konstruksiyali pechlarda kuydiriladi: shaxtali, aylanuvchi, ssiklon – aylanma, shuningdek xarakatlanuvchi aglomeratsion reshivotkalar.

Havoyi ohakning asosiy komponenti bu kalbsiy oksidi xamroxlik qiladi. Tarkibidagi magniy oksidi ( $\text{MgO}$ ) ga ko‘ra, ohak kam – magneziyalı (5% dan kam), magneziyalı (5–20%) va dolomitli (20–40%) bo‘ladi. Magniy oksidining mavjudligi ohakning o‘chishi tezligini pasaytiradi.

Ohak turlari:

- tez sunuvchi – 8 mingdan kam tezlikda so‘nadi;
- o‘rtacha so‘nuvchi – 25 mingdan oshmagan tezlik;
- sekin so‘nuvchi – 25 mingdan kam bo‘lmagan tezlik.

Kik 9179 – 77 ga ko‘ra, qurilish havosimon ohak uchta sort (nav) ga bo‘linadi – so‘ndirilmagan ohak va ikkita nav so‘ndirilgan ohak. Tarkibidagi  $\text{SaO} + \text{MgO}$  faollari (quruq modda hisobida) sondirilmagan ohak uchun qo‘sishimchalarsiz 1,2 va 3 navlar uchun mos ravishda 90,80 va 70%, qo‘sishimchali so‘ndirilmagan ohakning 1 va 2 navlari uchun 65 va 55% bo‘lishi lozim.

*Portlandsement.* Portlandsement tarkibida io‘qor va loy – tuproq bo‘lgan aniq tarkibli sun’iy bir jinsli xom ashyo qorishmasini bir tekis kuydirish natijasida olingan klinkerning maydalangan maxsulotlardir. klinkerning maydalash jarayonida 3,5% gacha miqdorda gipsli tosh qo‘shiladi. Portlandsementli klinker olish uchun xom ashyo qorishmalari tarkibida ko‘p miqdorda karbonat kalbchiy (toza, ishqor, mel, ohakli tuflar, mergelist ohaklar va boshqalar) bo‘lgan jinslar va loy tuproq xom ashysosi (og‘ir tuproq, mergelist tuproq, slanetsli tuproqva boshqalar) ga mansub jinslardan tarkib topadi.

Ishlab chiqarishning soddalashtirilgan texnologik jarayonni quyidagi sxema bilan ifodalash mumkin

Karbonli jins ( $\text{CaCO}_3$ )  
(ohak mel) 75 – 78%

Loy-tuproq jins 20 –  
25%

Qo'shimchalar  
1 – 2 %



Xomoshyo jinsn maydalash



Kuyguncha qizdirish, aralashmaning maksimal tempiraturasi  $1450^{\circ}\text{C}$



Portlandsement klinkeri

*1 – rasm. Portlandsement ishlab chiqarishning soddalashtirilgan texnologik jarayoni*

Xom ashyo qorishmasini tayyorlash xarakteriga ko'ra portlandsement ishlab chiqarishning quruq usullari mavjud. Bu usulning xar biri o'z xususiyati, afzalligi va kamchiligiga ega. Mamlakatimizdagissement zavodlarida nam usul ko'proq ishlatiladi, ammo go'pgina zavodlar iqtisodiy jixatdan afzal bo'lgan quruq va aralash usullariga moslashtirilmoqda.

*Ho'l usulda* xom ashyo qorishmasini ko'p miqdordagi suv ishtirokida quruq modda massasining 36 – 42 % gacha sharsimon tegirmonlarda maydalanadi va shlam deb nomlanuvchi suyuqlik massa olinadi.

Shlam – basseyndan massa quritish uchun aylanma pechga yo'naltiriladi. Bu usulda transpartirovka va xom ashyonи tashash engillashsa ham lekin quruq usulga ko'ra yonilg'i sarfi 1,5 – 2 baravar ko'pdir.

*Quruq usulda* boshlang'ich materiallarning quruq kukun qorishmasi (xom – ashyo uni) tayyorlanadi, uni aylanma pechda kuydiriladi.

Ishlab chiqarishning aralash usulida, kuydirish uchun xom ashyo qorishmasi granula ko‘rinishida tayyorlanadi. Aralash usul, ho‘l usulga qaraganda, yonilg‘ini 20 – 30% gacha iqtisod qiladi.

Kuydirish uchun uzunligi 150 dan 230 m gacha bo‘lgan (ho‘l usulda), diametri 5 – 7 m va keltaroq 60 dan 95 m gacha bo‘lgan (quruq usulda) aylanma rechlar ishlatiladi.

Pechda quydirish jarayonidamaterial avvalo quritiladi va to‘planadi, so‘ngra 200 dan 700°S gacha bo‘lgan temperaturada organik qo‘shilmalar yonadi, kimyoviy suv yo‘qoladi, temperatura 1100°S gacha ko‘tarilganda kimyoviy reaksiyalar yuzaga keladi, natijada portlandsement klinkerning asosiy minerallari hosil bo‘ladi%

- uch kalbasiyli silak (alit)

$3CaO \cdot SiO_2(C_3S)$  - 40–65%

- ikki kalsiyli silikat (belit)

$2CaO \cdot SiO_2(C_2S)$  - 15 – 40 %

- uch kalbasiyli alyuminat

$3CaO \cdot Al_2O_3(C_3A)$  - 3 – 15 %

- to‘rt kalsiyli alyumoferrit


$4CaO \cdot Al_2O_3 \cdot Fe_2O_3(C_4AF)$  - 10 – 20 %

Shunday qilib, portlandsementklinkerning asosiy minerallari kalsiyli silikatlardir, alit va belit miqdori yig‘indisi 75 – 80 % ga etadi.

Temperaturaning taxminan 1300°S ga etishida barcha reaksiyalar asosan tugaydi, ammo ohakning bir qismi mustaqil xolatda qoladi. Temperaturaning yanada oshishida (1300 - 1450°S) da xom ashyo materiallarining qisman erishi – kuyishi yuzaga keladi.

Aylanma pechdan klinker yashil – ko‘k rang mayda granulalar (10 – 40 mm) ko‘rinishida chiqadi, so‘ngra uni 100 – 200°S gacha havoda sovitib, yanada sovitish uchun ombor yoki silosda saqlash uchun ombor yoki silosda saqlash uchun joylashtiriladi.

Portlandsement klinkerdan portlandsement olish uchun uni tabiiy gips va boshqa qo‘sishimchalar bilan birgalikda maydalash zarur (2 - rasm).



### *Portlandsement klinkerdan portlandsement olish*

Shunday qilib, klinker – bu kuydirilgan maxsulot, esa - maydalangan.

Gips (ikkilamchi sulfat kal’siy  $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ) sementga qotish muddatini boshqarish uchun qo‘shiladi (gipssiz maydalangan klinker juda tez qotadi).

Boshqa qo‘sishimchalar sementga uning xususiyatlarini o‘zgavrtirish va klinkerni iqtisod qilish uchun qo‘shiladi. Qo‘sishimchalar turi va miqdoriga ko‘ra, portlandsement klinker asosidagi sement nomi ham o‘zgaradi.

## **1.5. Sement**

**Portlansement xususiyatlari.** Maydaligi 008 – sonli elakdan o‘tganssement miqdori bilan aniqlanadi (teshikcha o‘lchami 0,08mm); elaklanayotgan navning 85% dan kam bo‘lgan qismi elakdan o‘tishi kerak. Sement donalarining o‘rtacha o‘lchami 15 – 20 mkm, bu 2500 -3000 sm<sup>3</sup>/g ga teng bo‘lgan yuzaga to‘g‘ri keladi.

Mineral qo‘sishimchalarsiz portlandsementning zichligi 3,1g/sm<sup>3</sup>.

Qotish muddatissementni suv bilan normal qorishtirilganda 45 min. dan 10 soatgacha kam emas.

Portlandsementning normal qorishtirilgani odatda 22 dan 28% gacha bo‘ladi. Faol mineral qo‘sishimchali sementning muhim xarakteristikasidir.

Portlansement va boshqa sementlarning muhim sifat ko‘rsatkichlaridan biri bu – faollikdir, bu ko‘rsatkich 1:3 (sement: qum sement qorishmasi va s/s (suv:ssement munosabati)= 0,4 bilan tayyorlangan 4x4x16sm o‘lchamli namuna balkalarni yarmiga siqilishda, hamda 28 kun qotishda olingan sidamlik chegarasidir.ssemen markasi deb, uning faolligi kattaligi olinadi, portlansementning quyidagi markalari mavjud M 400, M 500, M 550 va M 600

**Sement turlari.** Portlansement klinker asosli sementlar xususiyatini o‘zgartirish uchun texnologiyada;

- klinkerning minerallik tarkibini o‘zgartirish (xom ashyo qorishmasining kimyoviy tarkibini o‘zgartirish yo‘li bilan);
- klinkerni maydalash jarayonida turli qo‘sishimchalarni kiritish;
- maydaligini oshirish.

Portlansement asosidagi sementlarning bir necha guruxlari mavjud.

*I guruh.* Maydalash jarayonida faol mineral qo'shimchalar qo'shilganssementlar.

Faol mineral qo'shimchalar (FMQ) tabiiy yoki sun'iy modda bo'lib, ular maydalangan holda:

- o'zicha qotmaydi;
- havosimon ohak bilan aralashganda, unga qotish hususiyatini beradi;
- portlansement bilan aralashganda, ssement toshning oddiy va mineral suvlardagi chidamlilagini oshiradi.

FMQ ga tabiiy va sun'iy materiallar kiradi:

- tabiiy : vulqonsimon (kul, trassa, tuflar) va cho'kma (diatomit, trepel, opoklar) tog' jinslari;
- sun'iy: glinitssemyanka (kuydirilgan tuproq), kremne – tuproq chiqindilari (oq saja) nordon zolyalyar, granulali dolena shlaklari, belit shlamni (alyuminiy, soda ishlab chiqarish chiqindilari).

Portlandsementga faol mineral qo'shimchalar qo'shilganda, ssement toshining suvga chidamliligi va korroziyaga chidamliligi oshadi. Faol mineral qo'shimchalissement turlari:

- faol mineral qo'shimchali portlandsement: PS D5 – 5%dan oshmagan qo'shimchali, PS D20 – 20%dan oshmagan qo'shimchali.

Ko'pgina qurilish qorishmalari va quruq qurilish qorishmalarni tayyorlash uchun ishlatiladi.

- putssolan portlandsement (PPS) – 20 va 40% gacha qo'shimchali. Kr osti va suvdagi konstruksiyalar betoni uchun, beton panellar va yirik bloklar montaji uchun mo'ljallangan qorishmalar tayyorlashda ishlatiladi;
- shlaklportlandsement (SHPS) – 20 va 80% gacha shlak qo'shimchali. SHPS ulkan beton va temir beton konstruksiyalarini tayyorlash uchun hamda qurilish qorishmalarini tayyorlash uchun ishlatiladi.

*II guruh:* maydalanish jarayonida yuzaki faol moddalar (YUFM) qo'shilganssementlar YUFM – yuzaki faol xususiyatli organik moddalar, 0,3% gacha qo'shiladi.

YUFM xarakat mexanizmi bo‘yicha ikki guruhga bo‘linadi: gidrofilva gidrofob turiga bo‘linadi.

Gidrofil turidagi YUFM:

- cement donalari yuzasini suv bilan yuvilishni yaxshilaydi;
- sementning suv yutshini kamaytiradi.

Ta’sirining asosiy samaradorligi bo‘yicha qo‘sishchalar plastifik – LST (ligmosulphonat texnik), LSTM (lignosulphonat texnik modifitsiyalangan), SD**B** (sulfit – drojali brajka), SSB (sulfatl – spirtli barda) bo‘ladi.

Gidrofil turdaggi YUFM ni qo’shganda plastifik portlandsement (PS PL) olinadi. Uni ketma ket muzlatilib eritiluvchi yoki namlanib quruvchi ta’sirga yuzma yuz keladigan konstruksiyalarda qo’llash tavsiya etiladi. Plastifik portlandsementli beton va qorishmalar g‘ovakligi kamroq va suv kirishi qiyinroqligi bilan ajralib turadi, shuning uchun ham ularning chidamliligi yuqori.

Gidrofob turdaggi YUFM yuzani suv bilan yuvilishini kamaytiradi.

Suv bilan yaxshi namlankvchi bunday kopirtirilgan yoki “ishirilgan” qum 400% gacha suvni (massa bo‘yicha) yutishi va ushlab turishi mumkin.

Engil inert, orta yonmas, toksik bo‘lmagan materiallar ishirilagan perlit qumi va shag‘al qurilishda keng ishlatiladi.

*Perlit ishirilgan* qumdan tayyorlangan shtukaturka qorishmalari devor yuzasining alohida manzarali bezagi bilan birga, yuqori tovush yutish xususiyati hisrbiga ichki xonalar qulayligini oshiradi va konstruksiyalarning yong‘inga chidamliligini ko‘paytiradi.

*Perlit shtukaturka qorishmalari* - turar – uy joy, jamoat va ishlab chiqarish xonalar, erto‘lalarning g‘isht, beton, temir – beton, knramzit betondan bajarilgan to‘siq konstruksiyalar devor to‘siq va chegaralar ning issiqlik – texnik, tovush, izolyasiyasi va akustik xususiyatlarini yaxshilashga ishlatiladi. Qorishmalar tabiiy sharoitda qotadi.

30 mm qalinlikdagi perlit shtukaturka qatlami issiqlik uzatishi qarshiliqi bo‘yicha 15 sm qalinlikdagi g‘isht devorga ekvivalent. SHtukaturkaning tovush yutish g‘ishtnikidan 1,5 baravar ko‘p. Perlit shtukaturka bilan himoyalangan

konstruksiyalarining yong‘inga chidamliligi oddiy shtukaturkali konstruksiyadan 2 baravar ko‘p.

*Vermikulit* – bu tabiiy material bo‘lib, kuydirish jarayonida xajmi 10 – 15 baravar tshadigan va oshadigan ajoyib xususiyatga ega gidroslyudalar guruhiba mansub. Bu mineral bronza – sariq, tilla rangda uchraydi, aniq kimyoviy tarkibga va faqat o‘ziga xos kristal tuzilmaga ega. U flogopit va betonning vermiculitzatsiya natijasida yuzaga keladi. Kristallar o‘lchami bir necha o‘n santimetrdan mikrongacha tebranadi.

Zichligi tarkibiga ko‘ra 2,3 dan 2,6 g/sm<sup>3</sup> gacha uchraydi. Vermikulit formulasi –  $Mg_{0,5}(MgFe)_3(Si,Al)_4O_{10}(OH)_24H_2O$ . Verlikulitning kimyoviy tirkibi o‘zgarishi mumkin, bu asosan boshlang‘ich slbda xarakteri va gidrotatsiya jarayonining geokimyoviy o‘aroiti bilan aniqlanadi.

Vermikulit kam sepiluvchi zichlik bilan xarakterlanadi (80 – 200 kg/m<sup>3</sup>). Standartga ko‘ra, u 100, 150 va 200 markalarga ega. Standartga ko‘ra, ishirilgan vermiculit uchta fraksiyaga bo‘linadi: yirik (5 – 10mm), o‘rta (0,5 – 5 mm) va mayda ( $\leq 0,5\text{mm}$ ).

Vermikulitdan tayyorlangan yonmas, biochidamli, oqsil va kislotalar ta’siriga neytral, vaqt bo‘yicha barqaror chidamlilik, deformatsion va issiqlik – texnik xarakteristikalarga ega. Bu esa vermiculitli materialni konstruksiya sifatida ham, issiqlik va tovush izolyasiyasi uchun ham ishlatish samaradorligini ko‘rsatadi.

Vermikulit shtukaturkalar devorlarni ichki va tashqi bezagi uchun milatiladi, hamda issiqlik himoyasidan tashqari, tovush yutuvchi, yong‘inga qarshi va manzarali fuknsiyalarini bajarish mumkin.

Oddiy shtukaturka qorishmasiga vermiculitdan ozgina qo‘shish ham, uni elastikligini oshirib, qrtgandan so‘ng, darzlar hosil bo‘lishini kamaytiradi.

*Plastifikatsiyalangan portlandsement* shixtaga 0,15-0,25 foiz (og‘irligi) miqdorida plastifikatsiyalovchi tashqi aktiv qo‘shimchani qo‘shish yo‘li bilan olinadi. Ushbussementdan tayyorlangan beton qorishmali qo‘zg‘aluvchanligi, qulay joylashishi, qotgan beton esasov uqqa yanada chidamliligi bilan ajralib

turadi. Sanoatda plastifikatsiyalanganssessmentning uch xil markasi ishlab chiqariladi: 300, 400 va 500.

Plastifikatsiyalangan portlandsementni sistematik ravishda muzlab, erib, namlanib va qurib turadigan sharoitda ishlatiladigan beton va temir beton konstruksiyalarni tayyorlash uchun qo'llash tavsiya etiladi. Ushbu bog'lovchini issiqlik ta'sirida uchraydigan konstruksiyalar uchun ham qo'llash mumkin.

Gidrofobssegment oddiy portlandsement klinkeri vassegment og'irligidan 0,06–0,30 foiz gidrofoblovchi qo'shimchani birgalikda to'yish yo'li bilan olinadi. Gidrofoblovchi qo'shimcha sifatida asidollar, asidol-milonraft, olien kislotasi, oksidlangan petrolatum qo'llaniladi. Gidrobofobssegmentning gidroskopiklik xossasi pasaygan bo'ladi. Bu esa betonning cho'ziluvchanlik, qulay joylashuvchanlik, sovuqqa chidamlilik kabi xususiyatlarini oshiradi hamda uni 2 xil 300 va 400 markalari ishlab chiqariladi.

Gidrofobssegmentni sistematik ravishda namlanib, qurib, muzlab turadigan beton va temir–beton konstruksiyalarni tayyorlash uchun qo'llash tavsiya etiladi. Segmentning gigroskobiklik xususiyatining pasayishi uni uzoq masofalarga transport vositasida tashish imkoniyatini beradi va aktivligini yo'qotmasdan saqlanish davrini uzaytiradi.

Sulfatga chidamli portlandsement oddiy portlandsementga qaraganda sulfatlar ta'siriga yuqori chidamliligi bilan boshlang'ich davrda sekin qotish xossalariга egaligi va kam issiqlik ajratishi bilan farq qiladi. Sulfatga chidamli portlandsement tarkibida: uch kalsiyli silikat 50%, uch kalsiyli alyuminat –5% gacha va uch kalsiyli alyuminat hamda to'rt kalsiyli alyumofferitning umumiyligi miqdori 22% dan ko'p bo'lmasligi kerak.

O'rta Osiyo va Qozog'iston segment zavodlarida quyidagi bog'lovchilar ishlab chiqiladi: portlandsement, sulfat ta'siriga chidamli putsolan portlpidsement va xokazo.

Sement zavodlari Angren, Ohangaron, Bekobod, Quvasoy, Navoiy, Kurmantiy, Dushanbe hamda Qarag'anda shaharlarida mavjud.

## **1.6. Beton qorishmalari uchun to'ldiruvchilar**

Qurilish qorishmalari uchun to'ldirgichlar sifatida tabiiy va sun'iy tosh materiallar –shag‘al, chaqiq tosh (maydalangan tosh), tabiiy va sun'iy qum ishlatiladi. To'ldirgichlarning sifati beton qorishmasiga va qotgan beton xususiyatlariga katta ta'sir ko‘rsatadi.

Zarralarning yirikligi bo‘yicha to'ldirgichlar yirik (5mm dan 70mm gacha) va juda mayda (0,14mm dan 5mm gacha) bo‘ladi.

***Yirik to'ldirgichlar***– chaqiq tosh, shag‘al, tabiiy va sun'iy g‘ovak to'ldirgichlar.

Tabiiy toshni maydalash yo‘li bilan tayyorlangan chaqiq tosh siqilishdagi mustahkamligiga qarab markalarga ajratiladi:

metamorfik va otilib chiqqan jinslardan –1400, 1200, 1000, 800 va 600;  
cho‘kindi jinslardan –1200, 1000, 800, 600, 400, 300 va 200.

SHag‘aldan tayyorlangan chaqiq tosh va tabiiy shag‘alssilindrda siqilish paytida Dr 8, Dr 12, Dr 16 markalariga ajratiladi. Yirik to'ldirgichning siqilish paytidagi mustahkam chegarasi loyihada ko‘rsatilgan beton markasiniidan 1,5–2 baravar yuqori bo‘lishi kerak.

Qurilish qorishmalarini tayyorlashda chaqiq tosh va shag‘alni fraksiyalar holatida ishlatiladi: 5-10; 10-20; 20-40; 40-70mm. Katta konstruksiyalarni betonlashda zarralar o‘lchami 70mm dan ortiq bo‘lgan yirik to'ldirgich ishlatilishi mumkin.

Yirik to'ldirgich sovuqqa chidamli bo‘lishi, ya’ni navbatma–navbat muzlatish va eritishga bardosh berishi kerak.

Sovuqqa chidamliligi bo‘yicha yirik to‘ldirgich quyidagi markalarga bo‘linadi: 15; 25; 50; 100; 150; 200; 300.

### **Tabiiy toshlardan tayyorlangan chaqiq toshningssilindrda siqilishga mustahkamlik chegarasi bo‘yichamarkalari**

1.5-jadval

Maydalangan tosh markalari	Toshning maydalanuvchanligi (og‘irligini yo‘qotish), %			
	CHo‘kindi		Otilib chiqqan va metamorfik	Otilib chiqqan effuziv
	Quruq holda	Suvga to‘yingan holatda	Suvga to‘yingan	Quruq holatda
1400			12 gacha	9 gacha
1200	6 gacha	9 gacha	16 gacha	9 gacha
1000	7-8	10-11	17-20	10-11
800	9-10	12-14	21-25	12-14
600	11-14	15-18	26-34	-
400	15-24	19-28	-	-
300	25-28	29-38	-	-
200	29-35	39-54	-	-

Tabiiy toshdan tayyorlangan chaqiq tosh tarkibida chang‘isimon zarrachalarning miqdori chegaralanadi.

**CHaqiq tosh va shag‘alning zarra tarkibi 1.6-jadval**

G‘alvir teshiklarning	D <sub>min</sub>	0,5/ D <sub>min</sub> + D <sub>maks</sub>	D <sub>maks</sub>	1,25 D <sub>maks</sub>

o‘lchami, mm		Bitta fraksiya uchun		
G‘alvirdagi to‘liq qoldiq, (%og‘irligi bo‘yicha)	95–100	40–80	0–5	0

Quyma va uvatib tushirilgan domna shlakidan tayyorlangan chaqiq tosh beton tayyorlashda keng qo‘llanishi mumkin. CHaqiq tosh hajmiy  $1100\text{kg/m}^3$  dan kam bo‘lmasligi kerak. SHlakli toshning silikati va temirli parchalanishlari chidamlilagini tekshirish shartdir.

Engil monolit beton konstruksiyalarni tiklashda sun’iy va tabiiy g‘ovak to‘ldirgichlar keng qo‘llaniladi.

*Sun’iy to‘ldirgichlar:* keramzitli shag‘al-chaqiq tosh va silikat jinslarni kuydirish jarayonida bo‘rttirish yo‘li bilan; pemza-domna shlaklari eritmalarini g‘ovaklashtirish yo‘li bilan; agloporit chaqiq tosh-silikat massasini aglomeratsiyalash (yiriklashtirish) usuli bilan; perlit chaqiq tosh-parchalangan vulqonning shishlarini qizdirib ishslash yo‘li bilan olinadi.

Tabiiy g‘ovak to‘ldirgichlarga: tabiiy pemzadan, vulqon etilishidan hosil bo‘lgan shlak yoki tufdan olinadigan g‘ovak to‘ldirgichlar, cho‘kindi jinslardan olingan to‘ldirgichlar kiradi. G‘ovak chaqiq tosh ishlab chiqarish jarayonida ko‘p miqdorda g‘ovak qum hosil bo‘ladi. Bunday qum engil betonlarni tayyorlashda ishlatiladi.

***Mayda to‘ldirgichlar.*** Oddiy og‘ir betonni tayyorlash uchun hajm og‘irligi  $1200\text{ kg/m}^3$  dan kam bo‘lmasligi, kattaligi 5mm dan oshmagan qumlar ishlatiladi. Tog‘ jinslarining emirilishidan, toshlarni maydalash boyitish yo‘li bilan esa sun’iy qumlar olinadi.

Qumda 10mm dan yirik zarralarning mavjudligi 0,5% dan va 5–10mm li zarralar og‘irligi 5%dan oshmasligi kerak.

Qumdagagi chang, gil va loy zarralarining miqdori og‘irligiga nisbatan 3% dan oshmasligi kerak.

Qurilish qorishmalarini tayyorlashda mayda qumlarni ishlatish chegaralanadi. Bu chegaralanish texnik–iqtisodiy jihatdan asoslanish kerak.

Qumning zarra tarkibini yaxshilash uchun yirik qumning yirik fraksiyalari yoki tosh materiallarni maydalashda olinadigan qum ko‘rinishidagi yiriklashtirilgan qo‘shimchalar ishlatiladi.

**Tabiiy qum tavsifi**

1.7-jadval

Qum turlari	0,63 mmli g‘alvirdagi to‘liq qoldiq og‘irligi bo‘yicha, %	Yiriklik moduli	0,14 mmli g‘alvirdan o‘tish og‘irligi bo‘yicha, %
Yirik	45 dan ortiq	2,5dan katta	
O‘rtacha	30–45	2,5–2,0	
Mayda	10–30	2,0–1,5	10 gacha
Juda mayda	10 dan kam	1,5–1,0	10 gacha

Qurilish qorishmalarini tayyorlashda  $RN \geq 4$  bo‘lgan suv ishlatiladi.

Shuningdek, suv tarkibidagi  $SO_4$  ning ionlari 2700mg/l dan ko‘p bo‘lmasligi, hamma tuzlarning umumiyligi miqdori 5000 mg/l dan oshmasligi kerak. Qotayotgan qorishmaga, uni tayyorlashda ishlatiladigan suvdan sepib turiladi.

Qum mayda to‘ldirgichdir. Qurilish qorishmasini tayyorlashda O‘rta Osiyoda asosan daryo qumi hamda tog‘ yoki barxan qumlari ishlatilidi. Qurilish qorishmalari uchun ishlatiladigan qumning tarkibi toza bo‘lishi kerak. Qum tarkibida ko‘p uchraydigan zararli aralashmalar (gips, slyuda, pirit, chang va loy zarrachalari, organik moddalar) betonning sifatini pasaytiradi.

Slyuda plastinkalari betondagissement toshi bilan birikmaydi, natijada betondan ko‘chib chiqib uning mustahkamligiga putur etkazadi; shuning uchun qumdagagi slyuda miqdori 0,5% dan oshmasligi kerak; sulfatli birikmalardan-pirit ( $FeS_2$ ) bilan gips qumda 1%dan oshmasligi kerak; ularssement toshini emiradi, ya’ni betonda korroziya boshlanishiga sabab bo‘ladi.

Gil zarrachalari bilan changlar qum donasining sirtini qoplabssement toshi bilan o‘zaro birikishiga to‘sqinlik qiladi, natijada, betonning mustahkamligi pasayadi.

Texnik shartlariga binoan tabiiy qumlardagi gil va changlar 3% dan, maydalab tuyilgan qumlarda esa 5% dan oshmasligi kerak.

Qumlar tarkibidagi organik aralashmalar juda zararlidir. CHunki ular, ayniqsa, organik kislotalar beton mustahkamligini kamaytiradi va hattossement toshini asta-sekin emiradi. Qumdagagi organik aralashmalar miqdori maxsus kolorometrik usul bilan aniqlanadi. Buning uchun qumga 3% li o‘yuvchi natriy Na(ON) eritmasi quyiladi va 24 soatdan so‘ng suvning rangi etalon bilan solishtiriladi. Agar suv rangi to‘q sariqqa aylansa, organik aralashmalar mavjud bo‘ladi va qumni ishlatishdan oldin shakli suvda, so‘ng toza suvda yuvish tavsiya etiladi. Maxsus yuvish mashinasida qum yuvilgandan so‘ng, uni qaytadan tekshirib, so‘ng ishlatishga ruxsat etiladi.

Qumning mayda – yirikligi sifatli beton tayyorlashda katta ahamiyatga ega. 0,14 mm dan 5 mm gacha o‘lchamdagagi qum kam bo‘shliqqa ega bo‘ladi. Bu holda beton uchun sarflanadiganssement tejaladi. Agar qum zarralari orasida bo‘shliq ko‘p bo‘lsa, beton uchunssement sarfi ortadi, zichligi kamayadi.

Qumning mayda – yirikligi standart g‘alvirda elab aniqlanadi. G‘alvirlarning ko‘zi 5; 2,5; 1,25; 0,63; 0,315 va 0,14 mm bo‘ladi.

Qum ustma – ust qo‘yilgan har xil ko‘zli g‘alvirlarda elangandan so‘ng har qaysi g‘alvirda qolgan qismi tortiladi va qumning umumiy og‘irligiga nisbatan foiz hisobida aniqlanadi. Qum teshiklarining o‘lchami 5,0 mm ga teng bo‘lgan g‘alvirdan butunlay o‘tishi yoki qolgan qoldiq 5 % dan oshmasligi, 0,14 mm teshikli g‘alvirdan o‘tganlari (gil, changlar) esa 10 % dan oshmasligi kerak.

Har qaysi g‘alvirda qolgan qoldiq qumning mayda-yiriklik darajasini ifodalaydi. Oddiy beton tayyorlashda qumning yiriklik moduli 2,0–2,5 chegarasida bo‘lishi kerak.

Yirikligi 0,25 mm dan kichik bo‘lgan qumlarni (ya’ni yiriklik moduli 1,5–1 ga teng bo‘lganda) og‘ir betonlar uchun ishlatish tavsiya etilmaydi, chunki

qumning yiriklik moduli qanchalik kichik bo'lsa, beton uchunussement sarfi shuncha ortadi yoki qorishmaning plastikligi kamayadi.

Qumning bo'shliq ko'rsatkichi undagi yirik donalar miqdoriga, shakliga, joylanishiga va zichlanish darajasiga bog'liq. Qoniqarli sifatga ega bo'lган qumning bo'shliq ko'rsatkichi 40% dan oshmasligi kerak.

Qumning yirik, o'rtacha, mayda va juda mayda turlarga bo'linadi (1.8 – jadval).

Qumning turlari	0,63 mm li g'alvirdagi qoldiq (og'irligi bo'yicha)	Yiriklik moduli	0,14 mm li g'alvirdan o'tgan qum (massasi bo'yicha)
Yirik	50 dan ortiq	2,5 dan katta	10 gacha
O'rtacha	30 dan 50 gacha	2,5 dan – 2 gacha	10 gacha
Mayda	10 dan 30 gacha	2 dan 1,5gacha	15 gacha
Juda mayda	10 dan kam	1,5dan 1 gacha	20 gacha

Qumning hajmiy massasi uning zichligi bilan bo'shliq darajasiga hamda namligiga bog'liq. Quruq holatdagi kvarts qumining hajmiy massasi  $1500\text{--}1700 \text{ kg/m}^3$  ga teng. Qumning hajmi uning namlanishiga bog'liq holda o'zgaradi. Namligi 6–7% bo'lган qum eng katta hajmda bo'ladi. Agar betonning tarkibi hajm bo'yicha hisoblansa, qumning namligini e'tiborga olish zarur.

Hajmiy massasi katta bo'lган, qumlar odatda nam hamda mutassil sovuq va issiq muhit ta'sirida bo'ladigan konstruksiyalar tayyorlashda qo'llaniladi. O'rta Osiyo va qurg'oqchilik sharoitlarida hajmiy massasi  $1550 \text{ kg/m}^3$  dan kam bo'lган quqlarni ham ishlatish mumkin.

*Yirik to'ldirgichlar.* Yirik to'ldirgichlarga shag'al, chaqiq tosh, shlak va shunga o'xhash materiallar kiradi.

Yirik to'ldirgichlar–tug', daryo va dengiz shag'ali kabi turlarga bo'linadi. Dengiz va daryo shag'ali suvda ko'p ishqalanganligi sababli yumaloq, sirti tekis bo'ladi. Plastinka, yapaloq va ignasimon cho'zinchoq shakldagi shag'al beton

mustahkamligini kamaytiradi. SHuning uchun bunday yaroqsiz shag‘al donalari beton tarkibida 15% dan (massasi hisobida) oshmasligi kerak. Tog‘ jinslarini chaqish yo‘li bilan beton sifatini oshiruvchi yirik to‘ldirgich olinadi.

Chaqiq tosh qirrali, umuman kub shakliga o‘xhash donalardan tashkil topgan. Bu esassement qorishmasining chaqilgan tosh bilan mustahkam yopishishiga imkon beradi. Shu sababli, markasi 400 dan katta bo‘lgan, yuqori mustahkamlikka ega bo‘lgan zinch beton tayyorlashda, asosan chaqiq tosh ishlataladi. Markasi 150–300 bo‘lgan va undan kam markali betonlar uchun chaqiq tosh o‘rniga shag‘al ishlatsa ham bo‘ladi.

Shag‘alning mustahkamligini aniqlash uchun shu shag‘aldan beton kublari tayyorlanadi va ayni vaqt dassementning mustahkamligi ham topiladi.

To‘ldirgichning yaroqlilagini aniqlash uchun tayyorlangan beton namunaning siqilishdagi mustahkamlik chegarasini sassage mentning mustahkamlik

$R_b$   
ko‘rsatkichiga bo‘lish kerak. Bunda  $\frac{R_b}{R_s}$  nisbatining ko‘rsatkichi shag‘al uchun 28 kundan keyin 0,48, chaqiq tosh uchun esa 0,53 dan kam bo‘lmasligi kerak.

Shag‘al va chaqiq toshning sovuqqa chidamliligi betonning loyihada ko‘rsatilgan sovuqqa chidamlilik markasiga mos bo‘lishi kerak.

Shag‘al donasi yirikligiga ko‘ra juda mayda (5 – 10 mm), mayda (5 – 20 mm), o‘rtacha (20 – 40 mm), yirik (40 – 70 mm), juda yirik (70 – 150 mm) xillarga bo‘linadi.

Shag‘alning mayda – yirikligi kataklarining o‘lchami 70, 40, 20, 10 va 5 mm ga teng bo‘lgan standart g‘alvirlarga elab aniqlanadi. Shag‘al donasining yirikligi beton konstruksiyasining o‘lchamiga qarab tanlanadi. Shag‘alning eng yirik donasi konstruksiyasi kesimining o‘lchamidan va armaturalar orasidan eng kichik masofadan 4 marta kichik bo‘lishi kerak.

Masalan, 200 mm qalinlikdagi beton devor qurish kerak bo‘lsa, qorishmadagi shag‘alning eng yirigi  $200/4=50$  mm dan oshmasligi kerak.

Shag‘alni yirik katakli g‘alvirdan elagandan keyin, har qaysisida qolgan qoldiq foiz hisobida topiladi va shu tartibda jami qoldiq hisoblab aniqlanadi.

Yirik to‘ldirgichning mayda-yirikligini aniqlashda, undagi eng yirik –  $D_u$  va eng mayda –  $D_m$  donalarining miqdorini bilish kerak. Shag‘alning eng yirik donasi katta ko‘zli g‘alvirda qolgan qoldig‘idir. Uning miqdori 5%dan oshmasligi kerak. Eng maydasi esa kichik ko‘zli g‘alvirdan o‘tgan shag‘al donalaridir. G‘alvirdan o‘tgan eng kichik donalar miqdori ham 5% dan kam bo‘lishi kerak.

1.9 – jadvalda berilgan.

### **Yirik to‘ldirgichlarning mayda – yirikligiga qo‘yilgan texnik shartlar**

1.9-jadval

G‘alvir kataklari o‘lchami, mm	D (mayda)	0,5 D (eng yirik)+ D (yirik)	D (yirik)	1,25 D (eng yirik)
G‘alvirdan qolgan jami qoldiq, % da (og‘irlilik hisobida)	95–100	40–70	0–5	0

Shag‘aldagi bo‘shliq 45% dan oshmasligi kerak: agar shag‘alda yirik donalar miqdori juda ko‘p bo‘lsa, unda bo‘shliqlar hajmi ortib ketadi, bo‘shliq ko‘rsatkichini kamaytirish uchun mayda-yirikligi har xil bo‘lgan shag‘alni ma’lum miqdorda bir-biri bilan aralashtirish kerak.

*Keramzit qum* – zarralarining o‘lchami 0,1 – 5 mm bo‘lgan to‘ldiruvchi.

4	Qum	t	3601.2	35076	25045.9	6803.6	
5	Megapilast-JK 08	$m^3$	51.69	443.07	18436	59.07	

### 1.10. Beton qorishmalarini tayyorlash va tashish

Inshootlarni industrial metodda qurilish zavodlarda tayyorlangan yig'ma temir - beton va ayrim konstruktiv elementlarni montaj qilishga asoslangan. Ammo ayrim qurilishlarda yaxlit beton va temir - beton ishlatish maqsadga muvofik. Katta xajmdagi qurilish inshootlari uchun beton qorishmasi markaziy yirik beton zavodlarida tayyorlanadi. Kichik xajmdagi ishlar uchun tunkarma barabanli ko'chma beton qorgich qurilmalaridan foydalilanadi. Beton tayyorlash jarayonida quyidagi operatsiyalar bajariladi: qolipni yig'ish va tayyorlash, materiallarni tortish va beton qorishmasini tayyorlash, qorishmani qoliplarga joylash uchun uni tashish va qotish davrida betonni namlab turish. Bu operatsiyalar transportyorlar, elevatorlar, bunkerlar, dozator va beton qorgich mashina uskunalar bilan jixozlangan maxsus qurilmalarda bajariladi.

Statsional beton qorgich qurilmalar bir necha qurilish ob'ektlarini yil bo'yli beton bilan ta'minlab turishga muljallangan bo'ladi. Markazlashgan beton zavodlarida materiallar ombori to'ldirgichlarni mayda - yirikligiga qarab soatlarga ajratuvchi qurilmalar, maxsus bug'lash kameralari va tashish xamda ko'tarish mexanizmlari bo'lishi kerak. Yirik va mayda to'ldirgichlar tarkibida chang va loylar ko'p bo'lsa, ular beton qorgichga tushgunga qadar yuviladi. Odatda to'ldirgichlar qurilishga yoki beton zavodlariga qazib chiqarilayotgan kareraning o'zida yuvilgan va sortlarga ajratilgan xolda keltiriladi. Aks xolda qurilish maydonida to'ldirgichlarni yuvish va sortlarga ajratish kerak bo'ladi. Beton qorgichlar ish rejimiga ko'ra siklik va uzluksiz ravishda tayyorlanadigan beton qorgichlarga bo'linadi. Siklik usulda beton qorgichlarga materiallar navbatma - navbat solinadi.

Uzluksiz ishlaydigan beton qorgichlarda materiallarni qorishtirib tayyor qorishmani olish ishlari uzluksiz davom etadi. Beton tarkibini xisoblagandan keyin qorishma tayyorlash uchun materiallar barabanning sig'imiga mos qilib taqsimlanadi va kovshga solinadi. Kovshdan esa barabanning material yuklaydigan teshigiga kelib tushadi. Qorgich barabanda beton qorishmasi tegishli qulay yoyiluvchanlikka va joylashuvchanlikka ega bo'lgunga qadar aralashtiriladi, so'ng tarqatuvchi bunker orkali tashish mashinalariga ko'yiladi. Materiallarni qorgich barabanda qorishtirish davri avvalo beton qorishmasining xususiyatiga, sementning xiliga va qorgich barabanning sig'imiga bog'lik. Agar qorishtirish vaqtি jadvaldagи ko'rsatkichlardan kam bo'lsa, betonning mustaxkamligi kam bo'ladi, ko'p bo'lsa, betonning mustaxkamligi ortadi, ammo bunda beton qorgichning ish unumi kamayadi. Beton qorishmasining xajmi materiallarning quruq xolatdagi absolyut xajmlar yig'indisidan bir muncha kichik bo'ladi. Chunki yirik to'ldirgichlar orasidagi bo'shliklar suv qo'shilgandan keyin mayda to'ldirgichlar bilan to'ladi.

### 1.16-jadval

Beton qorishmasining yoyiluvchanligi va sement mikdori	Qorgich baraban sig'imi, l				
	300-500	1000	1500	2250	3000
Eng qulay qorishtirish vaqtি, s					
Konusning cho'kishi 5 sm dan ko'p, Sement mikdori 250 kg/m <sup>3</sup> dan ko'p	45	60	90	120	150
Konusning cho'kishi 5 sm dan kam, sement mikdori 250 kg/m <sup>3</sup> dan kam	65	90	120	160	180

Beton qorishmasining sifati uning yoyiluvchanligi, tarkibi, xajmiy massasi va zichlangandan keyin betonning chikish koeffitsientiga qarab belgilanadi. Beton qorishmasini tashish vaqtি 45 minutdan oshmasligi kerak, aks xolda unda quyuqlanish jarayoni boshlanadi. Tashish vaqtida beton qorishmasi uzining plastik

xususiyatini saqlashi kerak. Agar qorishma asosoy yoyiluvchan va tashish vaqtida o'zidan osongina suv ajratsa, uning boshlangich yoyiluvchanlik ko'rsatkichi sezilarli darajada (30 % dan ko'p) kamayadi.

*Betons qorishmasini joylash va zichlash.* Beton va temir - beton konstruksiyalarini tayyorlashda beton qorishma oldindan tayyorlangan qolipda yoki yog'och taxta bilan ajratilgan joyga qatlam - qatlam qilib yotkiziladi va xar qatlam aloxida yaxshilab zichlanadi. Betonning zichligi va mustaxkamligi qorishmani qolipga joylash xamda zichlash usullariga bog'lik. Asosiy usullar kuyidagilar: shibbalash, titratib shtamplash, vakuumlash va titratib vakuumlash. Beton qorishmasiga ta'sir etgan titratuvchi kuch, betondagi to'ldirgichlar orasidagi ishkalanishni kamaytiradi va nixoyat, qorishma bir oz suyuqlashadi, keyin zichlashib qolipga yaxshi joylashadi. Beton qorishmasini yaxshi joylash uchun turli tipdagи vibratorlar (titratkichlar) ishlatiladi. Qurilishda ishlatiladigan vibratorlar konstruktiv tuzilishga ko'ra sirtki, tashki, ichki tiplarga bo'linadi. Sirtki va tashki vibratorlar poydevorlarni betonladaa, devorbop blok va panellarni, qavatlararo plitalarni, beton pollarni zichlashda ishlatiladi.

Beton qorishmalarini vibratorlar yordamida joylashda yoki zichlashda vibrator qorishmada ma'lum vaqtgacha ushlab turilishi lozim. Qorishma qanchalik kam yoyiluvchan yoki bikr bo'lsa, uni shunchalik uzok vaqt titratishga to'g'ri keladi. Qorishmani to'la joylashguncha titratilmasa qorishma zichlanmaydi, agar ortikcha titratilsa qorishma qatlamlaradi yoki undagi yirik to'ldiruvchilar aloxida ajrala boshlaydi. Sirtki vibrator zichlanuvchi qorishma yuzasiga qo'yiladi va unga o'rnatilgan dvigatel orqali 20 sm qalinlikdagi beton qatlamini zichlaydi. Vibratorning ish unumi  $5 \text{ m}^3/\text{soat}$ . Tashki vibratorlar kalinligi 10 sm dan kichik bo'lgan yaxlit beton to'sik devorlarni zichlashda taxta qolipga boltlar bilan biriktirilib ishlatiladi. Ichki vibrator beton qorishmaga to'la botib, tebranma xarakat beradi. Beton qorishma bunda vibrator bilan zichlanganda, undagi to'ldirgichlar minutiga 3000 - 7000 marta tebratiladi. Vibratorning tebranish

amplitudasi 0,1 - 0,6 mm, zichlash radiusi esa 35 - 45 sm. Ichki vibratorming ish unumi 3-6 m<sup>3</sup>/soat.

**Beton qorishmalarini tayyorlash. Komponentlarini dozalash.** Beton qorishmasini tayyorlashda materiallar massasi bo'yicha dozalanadi. Betonning xaqiqiy tarkibining belgilanganga mos kelishi uning tarkibidagi dozalash anikdigiga bog'likdir. Cement, suv va qo'shimchalar ±1%, to'dirgichlar ±2% aniqlikda dozalanadi. Avtomatik ravishda boshqariladigan dozatorlardan foydalanganda barcha operatsiyalar berilgan dastur bo'yicha bajariladi; yarim avtomatik ravishda boshqariladigan dozatorlar avtomatik ravishda to'diriladi va markaziy boshqaruvi pulidan beriladigan operator buyrugi asosida tushiriladi. Cement va to'dirgichlar dozatorlari chiqim bunkerlarining okimi ostida, suv va ko'pshimchalar uchun esa aralashtirgichlar ustida o'rnatiladi. Dozatorlarni qurilish laboratoriyasining xodimlari oyda bir marta tekshirib turadilar.

10 marta tortishdan so'ng olingan ma'lumotlar asosida xaqiqiy ogirlikning berilganidan farki sement va poroshok xolatida dozalanadigan ko'pshimchalar uchun - 20 % dan yuqori bo'lmasligi yirik va mayda to'dirgichlar uchun - 2,5 %; suv va suyuq xolatda dozalanadigan ko'pshimchalar uchun - 2 % bo'lishi lozim. Uzluksiz ishlaydigan dozatorlar xatoliklari texnologii liniyaning belgilangan rejimda 30 sekund ishlashi davomida olinadigan ma'lumotlar bo'yicha anikdanadi.

**Beton qorishmalarini aralashtirish.** Beton qorishmalarini tayyorlash uchun ikki xil materiallar erkin aralashtiriladigan va majburan aralashtiriladigan beton qorgichlar qo'llaniladi. Materialarni erkin aralashtiradigan beton qorgich qiya urnatilgan barabandan iborat bo'lib, ichki devorlariga aylana buylab parraklar payvandlangan. Materiallar erkin aralashtiriladigan beton qorgich xarakatchan beton qorishmalarni tayyorlashda keng qullaniladi. Bikr beton qorishmalarini tayyorlash uchun majburan aralashtiriladigan qorgichlardan foydalanish maksadga muvofik. Betonning tarkibiy qismlari bo'lgan materialarni aralashtirish quyidagicha kechadi: barabanning ichki devorchasiga payvandlangan parraklar baraban aylangan vaqtida materialni ilib, yuqoriga olib chikadi, u erdan material

pastga sochilib tushadi. Bu jarayon baraban aylanadigan butun vaqt davomida takrorlanadi, natijada beton komponentlari uzaro aralashadi. Majburan aralashtiriladigan qorgichlarda betonni tashkil etuvchi komponentlarni aralashtirish kosasi ichida aylanadigan parraklar va uzatma vertikal yoki gorizontal vallarga jo'natilgan kulachok yoki kurakchalar yordamida bajariladi. Bunda aralashtiruvchi parraklar bir vaqtda xam idish o'qi, xam uz o'qi atrofida aylanadi.

Sanoat S - 949, S - 773, S - 951 turidagi, xajmi mutanosib ravishda 250, 500 va 1200 litr bo'lган majburan aralashtiradigan beton qorgichlarni ishlab chikaradi.

Materiallarni aralashtirgichga solish quyidagi tartibda bajariladi: oldin suvning 15 - 20 % i kuyiladi, keyin qolgan suvni quyish bilan bir vaqtda sement va to'ldirgichlar solinadi. Isitilgan suvni berish bilan bir vaqtda yirik to'ldirgich solinadi: mayda to'ldirgich va sement baraban yoki majburan aralashtiradigan beton qorgich kosasi bir necha marta aylangandan keyin solinadi.

**Beton qorishmalarini tashish.** Beton korishmasini tashish jarayoni beton zavodida uni bunkerdan qabul qilib olish va turli transport vositalarida qurilish maydonchasiga etkazib berishdan iboratdir. Beton qorishmasini qurilish maydonchasi ichida tashishni qorishmani yotkizish joyiga uzatish deyiladi. Beton qorishmasini yotkizish joyiga transport vositasiga ortmasdan tashish eng samaralidir. Beton qorishmalarini qurilishga etkazib berysh uchun transport vositalari, muayyan qurilish tashkilotining imkoniyatlarini inobatga olgan xolda texnik — iktisodiy takkoslash asosida tanlanadi. Beton qorishmalarini bir joydan ikkinchi joyga etkazish uchun asosiy transport vositalari sifatida turli avtomobil vositalari, davriy konveyerlar xizmat kiladi. Beton qorishmasini tashshda uning berilgan texnologik parametrlarin o'zgarmagan xolda qurilish maydonchasiga etkazib berilishni ta'minlash lozim.

## **1.11. Beton qorish sexini xisoblash**

Temir-beton maxsulotlari zavodlaridagi beton qoruvchi bo'limlar ko'pincha vertikal sxema bo'yicha materiallarni sarf bunkeriga etqazish uchun komplektlanadi. Sex binosi balandligi 25 - 30 m ga etadi (1.4 - raem). Materiallar bunker ustidagi qavatga qiya o'rnatilgan lentali konveyer yordamida uzatiladi. To'ldiruvchilarni uzatishda aylanadigan voronkalardan foydalaniladi, sement va boshqa kukunsimon materiallar uchun shneklar va pnevmatik transportlardan foydalaniladi. Keyingi xolatda xavoni sement changidan tozalash uchun siklonlar va gazlamali filtrlar urnatiladi.

Beton qorishmasining quruq komponentlar mikdorlovchilari taaluqdi bunker otseklaridan ortiladi. Suv mikdorlovchi ustiga o'rnatilgan bakdan keladi, vodoprovod magistralidan bak to'ldiriladi. Qushimcha tayyorlaydigan moslamadan qushimchalarni suvli eritmasi mikdorlovchiga sirkulyasion truboprovod yordamida uzatiladi.

Sarf bunkerlarida materiallar zaxirasi odatga ko'ra to'ldiruvchilar uchun 1-2 soatga, sement uchun - 2 - 3 soatga qabul qilinadi.

Sarf bunkerlar otseklarga bo'linadi. Yirik to'ldiruvchilar uchun odatda uch otsek, mayda to'ldiruvchilar uchun ikki otsek va sement uchun xam ikki otsek muljallanadi. Sochiluvchi materiallarning erkin siljishi uchun bunker tagi qiyalik burchagi tabiiy qiyalikdan kattarok qilib bajariladi. Ularni asosan qoida buyicha 55 - 60° dan kam bo'limgan xolda qabul qilinadi. To'ldiruvchilar yuqori namlikda bunker devorining pastki qismida osilib qolmasligi uchun titratib gumbazni kuchiruvchi urnatiladi. Bunkerlarda shuningdek sementni aeratsiyasi uchun

(shamollatish) moslama, bug' panjaralari va bunker otseklarining to'lish darajasi ko'rsatkichlari mo'ljallangan.

Temir-beton maxsulotlari zavodlaridagi beton qoruvchi bo'llimlar ko'pincha vertikal sxema bo'yicha materiallarni sarf bunkeriga etqazish uchun komplektlanadi. Sex binosi balandligi 25 - 30 m ga etadi. Materiallar bunker ustidagi qavatga qiya o'rnatilgan lentali konveyer yordamida uzatiladi. To'ldiruvchilarni uzatishda aylanadigan voronkalardan foydalaniлади, sement va borpcha kukunsimon materiallar uchun shneklar va pnevmatik transportlardan foydalaniлади. Keyingi holatda xavoni sement changidan tozalash uchun siklonlar va gazlamali filtrlar o'rnatiladi. Beton qorishmasining quruq komponentlar miqdorlovchilari taluqli bunker otseklaridan ortiladi. Suv miqdorlovchi ustiga urnatilgan bakdan keladi, vodoprovod magistralidan bak to'ldiriladi. Qo'shimcha tayyorlaydigan moslamadan qo'shimchalarni suvli eritmasi mikdorlovchiga sirkulyasion truboprovod yordamida uzatiladi. Sarf bunkerlarida materiallar zaxirasi odatga ko'ra to'ldiruvchilar uchun 1-2 soatga, sement uchun - 2 - 3 soatga qabul qilinadi.

Sarf bunkerlar otseklarga bo'linadi. Yirik to'ldiruvchilar uchun odatda uch otsek, mayda to'ldiruvchilar uchun ikki otsek va sement uchun xam ikki otsek mo'ljallanadi. Sochiluvchi materiallarning erkin siljishi uchun bunker tagi qiyalik burchagi tabiiy qiyalikdan kattarok qilib bajariladi. Ularni asosan qoida bo'yicha 55 - 60° dan kam bo'limgan xolda qabul qilinadi. To'ldiruvchilar yuqori namlikda bunker devorining pastki qismida osilib qolmasligi uchun titratib gumbazni kuchiruvchi urnatiladi. Bunkerlarda shuningdek sementni aeratsiyasi uchun (shamollatish) moslama, bug' panjaralari va bunker otseklarining to'lish darajasi ko'rsatkichlari mo'ljallangan.

Tasmali konveyer kam xarakatlanadigan va bikir beton korishmalarini uzatishda qo'llilanadi. Ularni uzi yurib tashlaydigan aravachalar bilan jixozlanadi. Xarakatchan beton qorishmalar uchun konveyer burchak kiyaligi 8° dan oshmasligi; bikir qorishmalar uchun - 15° dan oshirilmaydi. Beton qorishmaning

tushish balandligi transport vositasiga uzatilayotganda 2 m dan oshmasligi kerak. Ma'lum masofaga xarakatlanuvchi qorishmani uzatishda, panellarni kasseta qurilmalarda qoliplashda, elektr uzatkichlar uchun tayanchlar ishlab chikarishda pnevmatik qurilmalardan foydalanish maksadga muvofikdir.

Beton korishmasini ishlab chikarish kuyidagi formuda orkali aniklanadi

$$Q_s \frac{V_b R_b n}{1000} = \frac{1000 \cdot 1 \cdot 30}{1000} = 30 \frac{m^3}{soat}$$

Bu yerda  $V_b$  - qoruvchi barabanning beton qorishma chiqarishdagi sig'imi.

$R_b$  - beton chiqish kayfisenti

$n$ -bir qorishmani tayyorlashda sikl davomiyligi

Sikilli xarakatdagi qoruvchi qurulmalar bir soatda ishlab chiqarishi quydagি fo'rmula bilan aniqlanadi.

$$n = \frac{3600}{t_s} = \frac{3600}{120} = 30$$

$$t_s = t_1 + t_2 + t_3 = 15 + 75 + 30 = 120 \text{ sek}$$

Beton qorish sexining yillik mahsuldarligi quyidagi formula bo'yicha topiladi:

$$Q_y = Q_s \cdot T_{sm} \cdot N \cdot T_f \text{ (m}^3\text{)}$$

Bu yerda

$T_{sm}$  - smenada ish vaqt , soat;

$N$  – smenalar soni;

$T_f$  - asbob uskunalarning yillik ishlash fondi - 247 sutka;

$$Q_y = 30 \cdot 8 \cdot 2 \cdot 247 = 118560 \text{ ming} \quad \text{m}^3/\text{yilda}$$

Diplom loyihasida tipovoy seksiyali 750 litrdan iborat 2 ta beton qorgichni qabul qilamiz.

### Beton qorishtirgichning texnik tavsifi

1.17-jadval

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	Gravitasion qorgich					Majburiy qorgich		
		CB-101	CB-305	CB-166	CB-10V	CB-80	CB-35	CB-79	CB-138
1	Sig'imi, litr	100	250	500	1200	250	500	750	1500
2	Taylor aralashma hajmi, litr	65	165	330	800	165	375	500	1000
3	Sikllar soni sikl / soat	qo'lida boshqariladi		30	20	-	40	-	45

### Beton qorish uskunasi va sexining texnik tavsifi.

1.18-jadval

T/r	Asbob uskunalarining nomlanishi	Loyiha sinfi	Mahsuldarligi		Dvigatel quvvati kvt	Ishchilar soni
			m <sup>3</sup> /soat	ming/m <sup>3</sup> / yil		
1	Tipovoy seksiyalar Qorgichli uniferlangan beton 1200 yoki 1500 litr	409-28-23/74	48	160	153	6
2	Ikkita betonqorgichli avtomatlashgan 500 yoki 750 litr	409 - 28 - 30	20 25	70 92	83	6

3	Avtomatlashgan uskunalar 2 ta qorgichli 1200 yoki 1500 litr	409 – 28 - 28	48 60	160 200	175	10
4	To'rtta qorishgichli 1200 yoki 1500 litr	409- 28 -29	96	320	323	14

### **1.12. Beton tarkibini xisoblash uchun texnologik uskunani tanlash va hisoblash**

Bu bo'limda uskunaning faqat texnologik xisobi, mashinaning aloxida bo'g'inlarining konstruktiv xisobisiz keltiriladi. Uskunaning texnologik xisobi deganda, mashina (yoki uskuna)lar maxsuldarligini aniqlash va ishlab chiqarish rejasini bajarish uchun zarur mashinalar sonini aniqlash tushiniladi.

Uskunaning texnologik xisobi uchun formulaning umumiy ko'rinishi quyidagicha:

$$P_m = \frac{P_t}{P_p K_{vn}} = \frac{29.9}{0.8 \cdot 20} = 1.8 = 2$$

Bu yerda:

$P_m$  – o'rnatalayotgan mashinalar soni ;

$P_t$  – berilgan texnologik jarayon bo'yicha talab etilgan soatdagi ishlab chiqarishi;

$P_p$  – taxlangan mashinaning soatdagi ishlab chiqarish;

$K_{vn}$  - asbob uskunalardan vaqt bo'yicha foidalanishning normativ koiffisenti (0.8-0.9 qabul qilinadi)

Sex uskinalari ro'yxati

1.19-  
jadval

	Uskunalarnomi va qisqacha xarakteristikasi	Soni	Izox

1	Afto cement tashuvchi 30 tonna	1	
2	Aftomatik cement ombori 120 tonna	6	
3	Sement torozili dazatir	1	
4	Suv torozili dozatir	1	
5	Beton qorgich	2	

### 1.13. Sement omborini hisoblash

Beton qoruvchi sex va zavodlar sementlarni saqlash uchun silos turidagi omborxonalar bilan jixozlanadi. Ular aloxida 5-10 m diametirli siloslardan tashkil topadi, sigimi 25-1500 t va undan ortik, metall yoki temir-betondan tayorlangan. Mayda qurilmalar uchun sig'imi 10- 20 t inventar siloslar qo'llaniladi. Siloslar soni omborxonaning sig'imiga qarab oshirib boriladi, qaysini o'z vaqtida qabul qilingan xisobiy zaxiraga va zavod quvvatiga nisbatan aniqdanadi. Qoida bo'yicha muljallangan sement zaxirasi korxonaning 5-10 kecha -kunduzlik talabidan kelib chiqib, qabul qilinadi.

Siloslar bir, ikki va bir kancha katorlarga joylashtiriladi. Yigma temir-beton siloslari keng ko'lamda tarqalgan. Sement omborga turli transport vositalari yordamida kelib tunshshi mumkin: maxsus avtomobillar sement tashuvchi vagonlar, odsiy yopik vagonlarda.

Bizning mamlakatimizda sementning asosiy qismi istemolchiga temir yo'l vagonlari-sement tashuvchi vagonlarda yoki avtotsement tashuvchi vositalarda jo'natiladi. Sementovozlarda sement tashilganda (ortish va tushrishdagi yo'qotish xisobga olinganda), oddiy yopik vagondagiga nisbatan yo'kotish va o'rtacha taxminan 10 marta kam, ochik xarakatlanadigan sostavga nisbatan taxminan 40 marta kam. Temiryul sement tashuvchilar bunker turida va 60 t yuk ko'taruvchi sisterna ko'rinishida buladi. Bunker turidagi sement tashuvchidan sement lyuk orkali omborning qabul qilish moslamalariga uz oqDMI bilan tushiriladi. Sisterna - sement tashuvchilardan sement siqilgan xavo yordamida tushiriladi. Yopik oddiy

temiryo'l vagonlaridan sementni tushirishda pnevmatik yoki mexanik tushiruvchilardan foydalilanildi.

Mexanik tushiruvchilar (mexanik kuraklar) ishlatilganda qo'l mexnati, ko'p sarflananishi, sement yo'qotishi bilan bajariladi va ishchilar uchun sanitar sharoitlar bilan ta'minlanmaydi. Pnevmatik usul bilan tushirish anchagina takomillashgan. U xarakatlanayotgan xavo okimida muakkat zarrani surilishiga asoslangan. Bu usulssement germetizatsiyalanib yuqotish bo'limganligi, ish sharoiti yaxshilanganligi, kompaktligi va tu lik mexanizatsiyalashganligi bilan xarakterlanadi.

Silosli sement omborlari mexanizatsiyalashtirilgan va avtomatlashtirilgan bo'ladi. Avtomatlashtirilgan sement omborlari anchagina qulay, xamma jarayonni boshqarish avtomat tarzda bajariladi. Avtomatlashtirilgan ombor tarkibiga qabul qiluvchi bunker, silos banka, filtr, kamerali nasos yoki vintli tushiruvchi, tarkatuvchi pnevmatik moslama, sement o'tkazuvchi, bajaruvchi mexanizm, sikilgan xavodagi moy va namlikni tozalovchi sistemalar va avtomat boshkaruvchi sistemalar kiradi.

Omboर sig'imini aniqlashda sement miqdori quyidagi formula asosida aniqlanadi.

$$N_{sem} = M_x \cdot S \cdot Z_s \cdot 1,04/0,9 \cdot C = 123017 \cdot 0,296 \cdot 7 \cdot 1,04/0,9 \cdot 262 = 1124,2 \text{ t}$$

Bu erda:  $M_x$  – korxonaning yillik mahsulorligi;  $\text{m}^3$

$S$  –  $1\text{m}^3$  mahsulot uchun o'rtacha sement sarfi,  $\text{t}$

$Z_s$  – ombordagi sement zaxirasi sutkada

1.04 – yuklashda va transport jarayonlarida mumkin bo'lgan sement ishlatilish koeffisenti;

0.9 – sementni saqlash uchun sig'imni to'lash koeffisenti

C - yilda ishchi sikllari soni;

Xisob bo'yicha 6 ta silos qabul qilamiz.

### **1.14. Toldiruvchilar omborini hisoblash**

Temir beton buyumlari ishlab chiqarish korxonalarining to'ldiruvchilar ombori transport turi, qabul usuli to'ldiruvchilarni saqlash va uzatishdan kelib chiqib turli turda bo'ladi. Toldiruvchilar ombori to'ldiruvchilarni saqlash va joylashtirish usuliga bog'liq holda ochiq yoki yopiq shtabel, yarim bunker va silos tipida quriladi.

Shtabel va yarim bunker omchorlar estakadalar, yer osti galerelari bilan jihozlanadi. Omborda to'ldiruvchi materiallarni kermativ zaxirasi 5 – 10 sutkaga yetadigan tartibda qabul qilinadi.  $1m^3$  og'ir beton uchun taxminan  $0.45m^3$  qum va  $0.9m^3$  shag'al yoki chaqiq tosh talab etiladi, yengil beton uchun esa  $0.55m^3$  qum va  $0.8m^3$  shag'al yoki chaqiq tosh ishlataladi. Fraksiyalarni to'ldiruvchilarni betonda qo'llashda tuzatish koefisienti (ikkita fraksiya uchun – 1.05; uchta fraksiya uchun -1.1; to'rtta fraksiya uchun – 1.15) kiritiladi. To'ldiruvchi omborning yig'ish quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$\text{Qum uchun} - N_q = M_x \cdot Q \cdot Z_q \cdot 1.04 / 0.9 C \quad (m^3)$$

$$\text{Shag'al uchun} - N_{sh} = M_x \cdot Sh \cdot Z_{sh} \cdot 1.04 / 0.9 C \quad (m^3)$$

Bu yerda:

$M_x$  – korxonaning yillik mahsuldorligi  $m^3$ ;

$Q$  – qum sarfi -  $0.45 m^3$ ;

$Z_q$  va  $Z_{sh}$  - ombordagi qum yoki shag'al zaxirasi sutkada;

1.04 – mavjud yuqotishlarni hisobga oluvchi koeffisent;

0.9 – omborning to’lish koeffisenti;

C – yilda ish kunlari soni 262 kun;

Sh – shag’al sarfi - 0.9 m<sup>3</sup>

Qum uchun –

$$N_q = M_x \cdot Q \cdot Z_q \cdot 1.04 / 0.9 C = 123017 \cdot 0.45 \cdot 7 \cdot 1.04 / 0.9 \cdot 262 = 1709 \text{ (m}^3\text{)}$$

Shag’al uchun -

$$N_{sh} = M_x \cdot Sh \cdot Z_{sh} \cdot 1.04 / 0.9 C = 123017 \cdot 0.9 \cdot 7 \cdot 1.04 / 0.9 \cdot 262 = 3418.1 \text{ (m}^3\text{)}$$

To’ldiruvchi shtabining issiqlik balandligi estakada yordamida yuklashda 12 metrni tashkil etadi.

Temir - yo’l vagonlardan to’ldiruvchilarni harakatlantiruvchi mashinada tushirishda shtabel balandligi 4-6 metr qabul qilinadi. To’ldiruvchilarni saqlash bo’linma soni:

Qum uchun – 2 ;

Yirik to’ldiruvchi (keramzit shag’ali) uchun – 4 ta qabul qilinadi;

To’ldiruvchilar omborining umumiyl maydoni quydagagi formula bo’yicha aniqlanadil;

$$S_{omb} = S_f \cdot K_o;$$

Bu yerda;

S<sub>f</sub> – omborning foidali maydoni bo’lib , u barcha shtabellarning yuzasi yig’indisiga teng m<sup>2</sup>

K<sub>o</sub> – ombar maydonini yo’laklar bilish hisobiga kengayishini inobatga oluvchi koeffisient (K<sub>o</sub> = 1.4-1.5)

$$S_{omb}=504 \cdot 1.5 = 756 \text{ m}^2$$

# III. Hisobiy qism

## **Yig'ma markaziy siqilgan chetki kalonnani hisoblash**

**Loyiha uchun topshiriq.** Ko'ndalang kesimi to'g'ri to'rtburchakli to'rtburchak bo'lган nomarkaziy siqilgan chetki yig'ma kalonnani hisoblash. Yuk ko'tarish qobilyati 10 t bo'lган sanoat sexi uchun loyixalash.sexning proliyoti 18 m, kalonnani qadami 6 m. kalonnani yuqori uchi +10.8m satxda. Kalonnani polning pastki qismi 0,4 m chuqurlikda joylashgan.uning to'liq balandligi  $H=11,2$  m ni tashkil etadi. Kalonnaning kiran ustki qismi balandligi  $H_1=3,8$  m. chetki kalonnalarining 6 m li qadami bilan bo'linuvchi o'qlarga bog'lanishini kalonna tashqi qirrasi bo'yicha nolinchi deb qabul qilamiz. Asosiy gruntlar suglinok bo'lib bo'shliq kayfisenti  $e=0.7$  oquvchanlik ko'rsatkichi  $I_L=0.5$ . Beton kilassi B20  $R_b=11,8$  armatura kilasi A-II,  $R_s=R_{sc}=280$  МПа.

Xisoblash. Kalonnaga tasir qiluvchi yuklarni aniqlash.tom yopmasi, fermalar, devor panellar va derazalarning xususiy vaznidann tushadigan uzoq muddatli tasir etuvchi yuklar, kalonnaning xususiy vazni qor, kran, shamolning qisqa muddatli tasiri. Kalonnani xususiy vazmini xisoblash uchun kesimning o'lchamlarini oldindan qabul qilamiz. Chetki kalonnaning kran ustki qismining o'lchami  $b \times h_1 = 40 \times 38$  sm, kran ostki qismining o'lchamlari  $b=40$  sm  $> H_1/25 = 740/25 = 30$  sm  $h_1=60$  sm.

Kalonnalar kesimlarining inertsiya mometlari; chetki kalonnaning yuqori qismi kesimning inertsiya moment

$$I_2 = 40 \cdot 38^3 / 12 = 183 \cdot 10^3 \text{ sm}^4,$$

$$\text{Pastki qismining inertsiyasi moment } I_1 = 40 \cdot 60^3 / 12 = 723 \cdot 10^3 \text{ sm}^4,$$

$$\text{Nisbati } n = I_1 / I_2 = 723 \cdot 10^3 / 183 \cdot 10^3 = 4$$

Rama kalonnalarining nisbiy bikirligi: chetki kalonnalarining kran ustki nisbiy bikirligi  $I_2=1$ , kran ostkisi  $I_1=723 \cdot 10^3 / 183 \cdot 10^3 = 4$

**Xisobiy yuklarni xisoblash.** Ferma bilan birgalikda tom yopmasidan tushadigan xisobiy yuk:  $g=4150 \text{ H/m}^3$  chetki kalonnalarda xosil bo'ladigan xisobiy bo'ylama N kuch  $N_1=4.51 \cdot 6 \cdot 18 / 2 = 244 \text{ kH}$ , chetki kalonnalarga qo'yilgan yukning eksentrisisenti  $e=19-3-6=10 \text{ sm}$

Katolok bo'yicha K3-01-50 bo'lgan yuk ko'tarishi 10 t  $Q=10 \text{ t}$  va kran osti yo'lining xususiy vazni  $1,5 \text{ kH/m}$  ni tashkil etadi.  $L=6 \text{ m}$ ,  $G_b=41,5 \text{ kHv}$  bo'lgan tipda kran ostki balkasining xususiy vaznidan tushadigan xisobiy yuk.

$$N_2 = 41,5 \cdot 1,1 + 1,5 \cdot 6 \cdot 1,1 = 56. \text{ Eksentrisiteti } e^2 = \lambda - \frac{h_1}{2} = 750 - \frac{600}{2} = 450 \text{ mm}$$

By yerda  $\lambda \geq h_1 + \delta + B_1 = 380 + 60 + 260 = 700 \text{ mm}$  tripli prytok kranlari uchun  $\lambda = 750 \text{ mm}$  deb qabul qilamiz.

Chetki kalonnalarning xususiy vaznidan tushadigan yuk  
 $N_{c2}=0,4 \cdot 0,38 \cdot 3,8 \cdot 25 \cdot 1,1 = 16 \text{ kH}$  pastki qismidan tushadigan yuk  
 $N_{c1}=0,4 \cdot 0,6 \cdot 7,4 \cdot 25 \cdot 1,1 = 48,8 \text{ kH}$  chetki kalonnaning qalinligi 200mm zichligi  
 $p=100 \text{ kg/m}^3$  keramzitbetonli devor panellardan va derazalardan tushadigan yuklar.

+10,3 satxda

$$N_{w1}=h\delta l_1\rho\gamma_f=4,2 \cdot 0,2 \cdot 6 \cdot 10 \cdot 1,2 = 60,7 \text{ kH}$$

+6,6 satxda

$$N_{w2}=2,4 \cdot 0,2 \cdot 6 \cdot 10 \cdot 1,2 + 1,3 \cdot 6 \cdot 0,5 \cdot 1,1 = 39 \text{ kH}$$

-0,4 satxda

$$N_{w3}=2 \cdot 0,2 \cdot 6 \cdot 1,2 \cdot 10 + 5,4 \cdot 6 \cdot 0,5 \cdot 1,1 = 46,4 \text{ kH}$$

Devor panellerining xususiy vaznidan tushadigan yuk qo'yilishining eksentrisisenti kalonnaning yuqori qismi uchun  $e=29$ , pastki qismi uchun  $e=40$

**Vaqtincha tasir qiluvchi yuklarni aniqlash.** Qordan tushadigan xisobiy yuk

$$P_1 = (p_n \gamma_f) l_1 l / 2 = 1,4 \cdot 6 \cdot 18 / 2 = 756000 \text{ H} = 75,6 \text{ kH}$$

10 t li va masofasi 22,5m gacha bo'lgan berilgan ko'priklari kran uchun quydagagi malumotlar qabul qilingan. Bitta kran uchun maksimal meyoriy bosim  $F_n=145$  kH aravavazni  $G_t=40$  kH, kranning umumiyligi vazni  $G_{gr}=270$  kH kiran eni  $B=6300$  mm kran bazasi  $K=4400$ . Kranlardan tushadigan yukning uyg'unligi kayfisenti  $\varphi=0,85$  ga ko'paytirish lozim. Yuk bo'yicha ishonchlilik kayfisenti esa  $\gamma_f=1,2$  ga teng. Ikkita bir biriga yaqin turgan kalonnalarga tushadigan maksimal bosim xisobi

$$D_{max} = \Psi \gamma_f \sum = 1,18 \cdot 1,2 \cdot 145 (1 + 0,267 + 0,685) = 400 \text{ kH}$$

Kran oski balkasining bitta g'ildiragidan relsga tushadigan minimal meyoriy bosim.

$$F_{1\min} \uparrow n \quad (Q + G_{1gr})/n_{10} - F_{1\max} \uparrow n = (100 + 270)/2 - 145 = 40 \text{ kH}$$

Bu yerda  $n_0=2$ -ikki kranning bir tomonidan g'ildiraklar soni.

Bir biriga yaqin turgan ikki kalonnadan tushadigan xisobiy minimal bosim.

$$D_{min} = \Psi \gamma_f \sum = 11,8 \cdot 1,2 \cdot 40 (1 + 0,267 + 0,685) = 110 \text{ kH}$$

Kran aravasining ko'ndalang tormozlanishidan tushadigan ko'ndalang kuch bu kuch kranning bir tomonidan xamma g'ildiraklari teng taqsimlanadi.

$$T_n = \frac{Q + G_t^n}{20n_0} = \frac{100 + 40}{20 \cdot 2} = 3,5 \text{ kH}$$

Kalonnaga tasir qiladigan xisobiy garizantal bosim.

$$T = \Psi \gamma_f \sum T_n y = 11,8 \cdot 1,2 \cdot 3,5(1 + 0,267 + 0,685) = 10 \text{ kH}$$

Shamol tasirini aniqlash shamol tasiri II rayon va A tipidagijoy uchun 10 m gacha bo'lgan balandlikda statik tashkil etuvchilarning moyoriy qiymati.

$$q_n = g_0 k c_e = 350 \cdot l c_e$$

$c_e = +0,8$  shamol tasir qiladigan tomonda,  $c_e = -0,6$  shamolga teskari tomonda.

Kalonnaga +10,8 m satxda teng taqsimlangan ko'ndalang rama va xisobiy shamol kuchining tasiri.

Shamol tasir qiladigan tomonda

$$q_w = \gamma_f g_0 k c_e l_1 = 1,2 \cdot 350 \cdot 1 \cdot 0,8 \cdot 6 = 2020 \text{ H/m}$$

Shamolga teskari tomonda

$$q_{w1} = \gamma_f g_0 k c_e l_1 = 1,2 \cdot 350 \cdot 1 \cdot 0,6 \cdot 6 = 1520 \text{ H/m}$$

+10,8 m satxda yuqorida joylashgan kalonnani yuqori qismida devor panellariga tushadigan to'plangan kuchlar yig'indisi va shamol kuchlari quydagiqa teng.

$$\sum W = 1,2 \cdot 350 \cdot 6 \cdot 1,075 \cdot 3,7(0,8 + 0,6) = 14000 \text{ H} = 14 \text{ kH}$$

Armature talab qiladigan kesim yuzasi.

$$A_s + A'_s = \frac{N_1}{\varphi \gamma R_{sc}} - A \frac{R_b \gamma_b}{R_{sc}} = \frac{2440000}{0.907 \cdot 1 \cdot 280 \cdot (100)} - 40 \cdot 40 \frac{11.8 \cdot 0.9}{280} = 9.6 \text{ sm}^2$$

# **III. Iqtisodiy qism**

## **Xom ashyoviy materiallar, sotib olinadigan buyumlar va yarim taylor mahsulotlarga bo'lgan talabni hisoblash**

Resurslarga bo'lgan talab diplom loyihasining texnologik qismida berilgan ko'rsatkichlar asosida belgilanadi. Resurslarni qiymati fabrikaning korxona ombori narxidan belgilaniladi:

$$S_0 = S_s + S_t ;$$

Bu yerda;  $S_s$  – xomashyo va materiallar narxi;

$S_t$  - transport xarajatlar ; 3.1- jadval

1.	Sement turi	t	415000
2.	Qum turi	$m^3$	25000
3.	Shag'al	$m^3$	35000
4	Suv	$m^3$	250

## **Xomashyo materiallarga bo'lgan talabni hisoblash**

3.2- jadval

Sement, t (415000)			Qum, t (25000)				
1 m <sup>3</sup> beton uchun kg	Yillik kerak bo'lgan miqdor kg	narxi		1 m <sup>3</sup> beton uchun kg	Yillik kerak bo'lgan miqdor kg	narxi	
		1 m <sup>3</sup> beton uchun	umumiyl			1 m <sup>3</sup> beton uchun	umumiyl

0,296	36413	122840	15111408280	615	7568209	1537.5	189138637.5
-------	-------	--------	-------------	-----	---------	--------	-------------

Shag'al, t (35000)				Suv, m <sup>3</sup>			
1 m <sup>3</sup> beton uchun kg	Yillik kerak bo'lgan miqdor kg	narxi		1 m <sup>3</sup> beton uchun 1	Yillik kerak bo'lgan miqdor 1	narxi	
		1 m <sup>3</sup> beton uchun	umumiyl			1 m <sup>3</sup> beton uchun	umumiyl
1264.5	155554996	44240	5442272080	169	20789.8	42.25	5197468.2

<b>Megoplast – JK 08</b> superplastifikator, t (1000000)			
1 m <sup>3</sup> beton uchun kg	Yillik kerak bo'lgan miqdor kg	narxi	
		1 m <sup>3</sup> beton uchun	umumiyl
1.77	217740	177	21774009

3.3- jadval

1 m <sup>3</sup> betonning narxi					
Sement	Suv	Shag'al	Qum	<b>Megoplast – JK 08</b>	Jami
122840	42.25	44240	1534.7	177	168833.95

## **Yoqilg'i, issiqlik energiya va elektroenergiyaga bo'lgan talabni hisoblash**

Hisob butun nomenklatura bo'yicha bajariladi, yonilg'i va energiya sarfi diplom loyihasining texnologik bo'limidan olinadi.

### **Yoqilg'i, issiqlik energiyasi va elektroenergiya bo'lgan talab**

Yonig'li va energiya narxlari:

1. Elektrenergiya – 1kvt/soat – 120so'm
2. Suv
3. Boshqa yoqilg'ilar

### **Asosiy ishlab chiqarish xodimlarining asosiy va qo'shimcha ish haqini hisoblash**

Bu hisoblarni bajarish uchun avval quydagি ko'rsatkichlarga asoslanib bir ishchining ish fondi hisoblanadi;

- kalendar bo'yicha ish fondi - 365 kun
- bayram kunlari - 8 kun
- dam olish kunlari - 52 kun
- qo'shimcha dam olish kunlari-52 kun
- navbatdagi va qo'shimcha ta'til - 18 kun
- o'qish uchun ta'til - 1 kun
- tug'ulganlik uchun ta'til - 1 kun
- kasallik va boshqa sababli ishga chiqmaslik - 1.5 kun
- davlat va jamoat topshiriqlarini bajarish - 1 kun.

Ish vaqt balansi (1ta ishchining haftasiga 5 kunlik ishda)

### Ishchi soatlar balansi

3.4- jadval

T/r	Kursatkichlar	O'lchov birligi	Miqdori
1	Ish vaqtining kalendar fondi	kun	365
2	Ta'til kunlari soni: a) bayram b) dam olish c) qo'shimcha dam olish	kun kun kun	112 8 52
3	Kalendar bo'yicha ish miqdori	kun	253
4	Ishga kelmaslik jumladan: a) navbatdagi va qo'shimcha ta'til b) o'qish uchun ta'til c) tug'ish uchun ta'til d) kasallik va qonunda ko'zda tutilgan boshqa sabab bilan e) davlat va jamoat ishlarini bajarish  Ta'til ikkinchi kuni	kun kun kun kun kun	22,5 18 1 1 1
5	Navbatdagi va qo'shimcha ta'til		

	davomidaish kuni hisoblanadigan ikkkinchi dam olish kunlari soni	kun	3.0
6	Yildagi ishchi kunlari soni	kun	233.5
7	Ish kunlarining o'rtacha davomiyligi	soat	8,2
8	Bir ishchining foidali ish vaqtি fondi	soat	1914.7

**Beton qorish sexi kichik xodim va xizmatchi xodimlarning ish haqi fondini hisoblash**

3.5- jadval

T/r	Kasb nomlanishi	soni	oylik maoshi so'm	yillik fond so'm
1	Sex boshlig'i	1	680000	8160000
2	Sex masteri	2	620000	14880000
3	Labarant	1	285000	3420000
4	Farrosh	2	98000	2352000
Jami:			28812000	

Qo'shimcha ish haqi - 6.5% - 1872780 so'm;

Jami asosiy va qo'shimcha ish haqi - 28999280 so'm;

Ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar - 6.1% - 1768956.08 so'm

Jami ish haqi fondi: 30768236.08 so'm

## Uskunalarini ta'mirlashga ketadigan xarajatlar      3.6- jadval

T/r	Xarajatlarning nomlanishi	Summa, so'm
1	Uskunalarini ishlatish bilan band bo'lgan yordamchi ishchilar ish haqi	70982060
2	Yordamchi materiallar	5491030
3	Transport vositalari va ishlab chiqarish uskunalarining avtomotizasiyasi	7081240
4	Transport vositalari va eskiruvchi kunlik ta'mir	3540620
5	Qiymati va shu eskiruvchi inventorning ishdan chiqishiga ketgan xarajatlar	3320310
6	Boshqa xarajatlar	27446980
Jami :		118062240 so'm

Uskunalarini xizmat ko'rsatish va saqlash xarajatlari o'z ichiga texnologik bosim va ko'tarma krani ishlatish, sozlash, tamirlash va xizmat ko'rsatish uchun ketgan barcha xarajatlarni o'z ichiga oladi. Ustunlarda ishlovchi yordamchi ishchilarning ish haqi 3.4-jadval dan olinadi (yordamchi ishchilar qismi). Yordamchi materiallari ketgan xarajatlar yordamchi ishchilar ish haqqining 50 % i miqdorida olinadi.

Transport vositalari va ishlab chiqarish uskunalariga ketgan xarajatlar va uskunalarining smeta narxini amortizatsiya narxiga k'opayrirish orqali topiladi. Uskuna va uning montaji smeta narxi diploma loyixasining texnologik qismidan olinadi.

Uskunalarining kunlik ta'miri uchun ketgan xarajatlarning 50 % miqdorida olinadi. Kam qiymatli va tez eskiruvchi inventorlarning ishdan chiqishini qayta tiklashda ketadigan xarajatlar qiymati asosiy ishchilar ish haqqining 30 % miqdorida olinadi.

### **Sex bo'yicha xarajatlar hisobi**

3.7-jadval

T/r	Xarajatlar ro'yxati	Summa so'm
1.	Sex personalining ish haqi	30768236
2.	Bino va inshootlarni saqlash	2361245
3.	Bino va inshootlarning texnik ta'miri	22119777
4.	Bino va inshootlarning amortizatsiyasi	44239553
5.	Mehnat muhafazasi va yong'inga qarshi texnikaga ketgan xarajatlar	5983443
6.	Boshqa xarajatlar	21917520
	Jami:	127389774

Sex personalining ish haqi xizmatchilar va kichik xodim ish haqi fondidan olinadi. Bino va inshootlarni tuzish (ishchi holida saqlash) uchun xarajatlar qiymati bino va inshootlar smeta narxining 2 % miqdorida olinadi yoki inshoot hajmi va maydonini shu ko'rsatkichlarga ketgan kapital qo'mitalarga ko'paytirish orqali topiladi.

Bino va inshootlarning smeta narxi o'z ichiga qurilish ishlariga ketgan uskuna sotib olishga va montaj ishlarini bajarishga ketgan xarajatlarni oladi.

Bino va inshootlarning amortizatsiyasiga ketgan xarajatlar qiymatini amortizatsion ajratmalar normasiga ko'paymasiga teng. Bino va inshootlarning

kundalik tamirlash uchun ketgan xarajatlar qiymati amortizatsion qiymatining 50 %ini tashkil etadi. Mehnatni muhofaza qilish va yong'inga qarshi texnikaga ketgan xarajatlar hamma ishchilar ish haqining 2.5 % miqdorida olinadi.

### **Zavod bo'yicha umumiy xarajatlarni xisoblash**

Umumkorxona xarajatlarini korxonani boshqarish va ishlab chiqarishni tashkil etish bilan bog'liq bo'lган xarajatlarni o'z ichiga olib, rahbarlik ta'minoti amortizatsiya umumkorxona maqsadlari uchun qo'llaniladigan asosiy vositalarning ta'minoti va ta'miri kadrlar tayyorlash korxonani qo'riqlash va boshqa xarajatlardan iborat bo'ladi. Bu xarajatlar ishlab chiqarish ishchilarning asosiy va qo'shimcha ish haqining 45 % miqdorida olinadi.

$$30768236 \times 0,45 = 44613942 \text{ so'm}$$

### **Brak bo'yicha yo'qotishlar hisobi**

Brak mahsulot ishlab chiqarish natijasida chiqadigan xarajatlar xom ashyo materiallarning – 3 % miqdorida hisoblanadi  $207693291 \times 0,03 = 623079874,8 \text{ so'm}$ .

### **.Mahsulotning zavod narxini topish**

Mahsulotning zavod narxi sex smeta xarajatlari zavod bo'yicha umumiy xarajatlar brak bo'yicha yo'qotish

$$207693291 + 44613942 + 623079874,8 = 8753871078 \text{ so'm}$$

### **Ishlab chiqarishdan tashqari xarajatlarni topish**

Ishlab chiqarishdan tashqari xarajatlar qiymati mahsulotni sotish bilan bog'liq xarajatlarni o'z ichiga oladi va fabrika –zavod narxining - 4% miqdorida qabul qilinadi:  $8753871078 \times 0,04 = 35015484 \text{ so'm}$

# **IV. Mehnat muxofazasi va texnika xavfsizligi**

## **Beton qorishmalarini ishlab chiqarish sanatoriyasi**

### **va mehnat gigiyenasi**

Qurilishda sanitariya va mehnat gigiyenasi masalalari bir qator meyoriy hujjatlar asosida rejalashtiriladi. Bu hujjatlarda sanoat korxonalarini loyihalashtirishda mavjud sanitariya me'yirlari, “Sanoat korxonalari bosh rejasini loyihalash me'yirlari”, “Qurilish tashkilotlarining yordamchi bino va xonalarini loyihalash bo'yicha ko'rsatma” va boshqalar kiradi. Bu hujjatlarining asosiy vazifasi sog'lom mehnat sharoiti yaratish yo'li bilan jarohatlanish va kasallikning oldini olishdan iborat. Ularda sanoat korxonalarini loyihalash, qurish va foidalanish davrida sanitariya talablarini rejalashtirish chora tadbirlari berilgan.

Sanoat korxonalaridan ajralib chiqadigan va ishchi muhitga tarqaladigan har xil zaharli chang va zaharli gaz moddalarini odam uchun zaharsiz ruxsat etilgan miqdorini belgilab beradi. Shunday qilib qurilishda ishlab chiqarish sanitariyasi va mehnat gigiyenasi tozalik va ozodalik bo'yicha tadbirlar tuzishdan, korxonalarda sog'lom mehnat sharoitlarini yaratishdan iborat.

### **Beton qorish sexida mehnat muxofazasi.**

Beton qorish sexida ish olib borish jarayonida hodimlarning salomatligini taminlash kerak. Changlanishga qarshi og'izni himoya g'iloflari orqqali bekitish, xar bir ishchining vazifasiga ko'ra himoya vositalari bilan taminlash, chang zo'nalarda ishlovchi ishchi hodimlarni kifir ichimligi bilan doimiy ravishda taminlash talab qilinadi. Og'ir ishlar bilan shug'ullanuvchi hodimlarga dam olish kunlarini belgilab berishkerak. Ximik qo'shimcha omborida ishlovchi ishchi hodimning salomatligini muntazam ravishta tekshirib turish kerak. Beton qorish sexining yuqori qismida ishlovchi hodimlarni kaska bilantaminlash zarur. Beton qorish sexidagi ishchilarining ish vaqtidan so'ng yuvininsh hamda toza ish kiyimlari bilan taminlash kerak. Shovqindan himoya qilish uchun uchun himoya

vositalari bilan taminlash kerak. Titroq bo'ladigan zo'nalarda maxsus oyoq kiyimlar bilan taminlash zarur.

### **Ishchi sexlarning joylashuvi.**

Beton qorish sexlari mayshiy xizmat ko'rsatish binolaridan; oshxona, damolish xonasi, idora kabi binolardan uzoqroqda joylashishi kerak. Beton qorish sexi xamda to'ldiruvchilar omboridan chiqayotgan changlar bu binolarni chang bosishiga olib kelish mumkun. Binolarning joylashuvi asosan shamol oqimining yo'nalishiga xam bog'liqdir. Shamol oqimi keladigan tomonlarga mayshiy xizmat ko'rsatish binolari quruladi. Shu bilan birgalikda o't o'chirish bloklari markaziy zo'nalarga joylashtiriladi. Elektir tarmoqlari ximoya vositalari bilan taminlanadi.

### **Yong'in xavfsizligi**

Yong'inlar sanoat korxonalari xalq xo'jaligining hamma tarmoqlari, qishloq xo'jaligi, turar joy binolarida yuz berishi mumkin bo'lgan hodisa hisoblanadi. Yong'in chiqmasligini ta'minlash yong'in chiqqan taqdirda uning rivojlanib, tarqalib ketmasligi chora tadbirlarini ko'rish birinchidan moddiy boyliklarni saqlab qolishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchidan inson salomatligi va uning hayotini saqlab qolish chora – tadbirlarini amalga oshirilishi, mehnat muhofazasining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Beton va temir beton buyum va konstruksiyalari ishlab chiqarish korxonasi sexlari va omborlari atrofi to'siladi bunda korxona o't o'chirish vositalari bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Sanoat korxonalarining yong'inga va portlashga xavflilik kategoriyasini aniqlash, bu korxonada xavfsiz ish sharoitini ta'minlash uchun chora tadbirlar ishlab chiqarish zarur. Texnologik jarayonlarni yong'inga va portlashga xavfliligi tahlil qilinganda texnologik sxemalardan, chegaralardan ma'lumotnomada keltirilgan materiallardan sanoat korxonasida ishlatilayotgan material va moddalarning

o'rganiladi. Maydalovchi qurilmalar, tegirmonlar, isitish va qizdirish vositalarida yetarli darajada chang bilan aralashma hosil bo'lishi va portlashga olib kelishi mumkin. Sanoat korxonalarida yonuvchi aralashmalarni alangalanishiga olib keladigan omillar ochiq alangali olovlardan foydalanish, cho'g'langan yonuvchi moddalar mexanik energiyani issiqlik energiyasiga aylantirish elektr energiyasini issiqlik energiyasiga aylantirish va kimyoviy reaksiyalar hisoblanadi. Yondirish manbai sifatida gaz payvandlash qurilmasi elektrpayvandlash ishlarida chiqadigan uchqunlarni hisobga olish kerak: yong'inning oldini olish maqsadida zamonaviy va o'ta mustahkam elektr qurilmalari va asbob anjomlaridan korxonalarda keng qo'llanilmoqda.

# **V. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

## Adabiyotlar ro'yxati

1. 2013 yil 7 dekabr konstitutsiyaning 21 yiliga bag'ishlangan prezidentimiz I.A.Karimovning nutqidan
2. AKRAMOV H.A., NURITDINOV H.N. BETON TEXNOLOGIYASI. O'quv qo'llanma, Birinchi qism. Toshkent, TAQI, 2012. 93 b.
3. Акрамов X.А., Нуритдинов X.Н. БЕТОН ВА ТЕМИР-БЕТОН БУЮМЛАРИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ. Дарслик.Тошкент-2010- 593 б.
4. Уз РСТ 679-96. Бетоны. Правила подбора бетона.
5. Уз РСТ 7473-94 Смеси бетонные.
6. Ўз.РСТ 8267-93. Щебень и гравий из плотных горных пород для строительных работ.
7. X.A. Akramov, Sh.T.Raximov, X.N.Nuritdinov, M.T.Turopov "BETON TO'LDIRGICHLARI TEXNOLOGIYASI" O'quv qo'llanma Toshkent -2011 163 б.
8. Н.А. Махмудова, Х.И. Давлетов "ҚУРИЛИШ МАТЕРИАЛЛАРИ КОРХОНАЛАРИ ИҚТИСОДИЁТИ" Ўқув қўлланма Тошкент – 2007 131 б.
9. Н.А. Махмудова, X.Н. Нуритдинов, Ш.Т. Рахимов 5340500- "Қурилиш материаллари, буюмлари ва конструкцияларини ишлаб чиқариш", 5111000 – Касб таълими (5340500 – "Қурилиш материаллари, буюмлари ва конструкцияларини ишлаб чиқариш") таълим йўналишлари бўйича диплом лойиҳасини бажариш учун услубий қўлланма ( Н.А. Махмудова, X.Н. Нуритдинов, Ш.Т.Рахимов, 2013 йил, 52 бет).
10. КМК 2.01.07-96. Юк ва таъсирлар.
11. X.Akramov, Sh.Rahimov, X.Nuritdinov, M.Turopov – "Beton to'ldirgichlari texnologiyasi", Toshkent, 2010 yil.
12. Уз.РСТ 7473-94. Смеси бетонные